

Taklif

20 minutlik dars

Maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida o'quv yilini 20-avgustdan boshlash kerak. Bunda har bir dars 45 minutdan emas, balki 20 minutdan bo'lishi lozim. Sinf o'quvchilari 2 guruhga bo'linadi va darslar 2 smenada tashkil etiladi.

3-bet

Ta'lim: tarix masalasi va maktab darsliklari holati

Ko'pincha, faqat xato va kamchiliklar mavjudligi qayd etiladi, ularni bartaraf etishga yordam beradigan amaliy takliflar kam. Uslubiy jihatlariga kelsak, bu masala deyarli muhokama qilinmaydi.

5-bet

Pandemiyada ta'lim

("Olma daraxtining tagiga olma mevasi tushar" yoxud o'qituvchisiga o'xshar shogirdlar)

Sizning shu darajaga erishishingizda ta'lim bergan ustozlaringizning bilimi "hosildor yer" vazifasini o'tamadimi?!

12-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 5-avgust, chorshanba № 27 (9300)

Xalq ziyolilari gazetasi

Ishsizlar ko'payishiga hissa qo'shmang!

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Inomjon Majidovga ochiq xat



O'ylab qarasaq, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash laboranti yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi qayerda, qachon, qanday amaliyot o'taydi? Aytaylik, shu guruhda 30 nafar o'quvchi o'qidi. Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash ombori ham yo'q. Bo'lganda ham u yerda 30 nafar ishchi ishlaydimi? Menimcha, bu yo'nalishga hududimizda talab yo'q.

2-bet

Bolalarga xos va mos maqom kerak



7-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Bu yil masofaviy ta'lim rivojida quvonarli o'zgarishlar bo'ldi. O'qituvchilar ham, o'quvchilar ham onlayn ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish borasida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldi. Ammo mavjud imkoniyatlardan "ud-daburonlarcha" foydalanib, ijtimoiy tarmoq va turli saytlarda tanlov, olimpiada va bel-lashuvlar tashkil etayotganlar ko'paydi. Ak-sariyati maqsadsiz, foydasiz ekanini anglash qiyin emas. Qolaversa, qatnashchilarning diplom va yutuqlarni qo'lga kiritish borasidagi harakatlari ham kimo'zardan boshqa narsa emas. Bu orqali farzandlarimizni yolg'on yutuqlarga, soxta dabdabalar-u bekorchi ishlarga o'rgatib qo'yamaymizmi? Har qanday holatda ham bolalarimizga halollik va to'g'rilikni o'rgataylik.

Nafisa ORTIQOVA

Jiyanim Qorako'l litseyida o'qidi, o'zim guvohman, u paytlari tok bo'lmasdi, sham yorug'ida ertalabgacha dars qilardi. O'qishga shu qadar ishtiyoqi kuchli edi. Matematika va fizikaga oid har qanday misol va masalalarni o'ylanmay yechardi. Eng nufuzli oliy ta'lim muassasasiga yuqori ball bilan o'qishga kirdi. Oldingiday g'ayrat bilan o'qiy boshladi. Ammo 1-sessi-yani tugatgach, tamoman o'zgardi. Darslar-ga kam qatnashadigan, borsa ham 2 paradan so'ng qaytadigan bo'ldi. Sababini so'rasak: "Hammasini pul bilan yopaman. O'qisam ham shu pulni berarkanman. Undan ko'ra ishlash, sessiya uchun pul to'playman", dedi. Mana shunday bilimli, salohiyatli yoshlar nafsiga qul o'qituvchilar sabab kamayib bo-rayotgani haqiqat.

Sanobar TO'RAQULOVNA

Ishsizlar ko'payishiga hissa qo'shmang!

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Inomjon Majidovga ochiq xat

Assalomu alaykum, hurmatli Inomjon Urishovich!

Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi 26-maktabda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi-man. 30 yillik mehnat faoliyatim davomida sohamizdagi barcha yutuq va kamchiliklarning guvohi bo'lib kelyapman.

Oddiy bir o'qituvchi sifatida muhim bir jarayon haqida fikrimni bildirmoqchiman.

Kasb-hunar kollejlari-ga o'quvchilarni qabul qilish boshlanganidan xursandmiz. Chunki hammamiz bilimzki, maktabning barcha o'quvchisi o'quv rejadagi fanlarni birdek o'zlashtira olmaydi va hammasi ham OTMga kira olmaydi. Bunda ayrim o'quvchilarning hunarga havasi ortiqligi ham sababdir, balki.

Bizning hududda yengil sanoat kasb-hunar kolleji mavjud. Shu muassasaning qabul yo'nalishlari bilan tanishdim. O'sha eski yo'nalishlar:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash laboranti.

2. To'qish-tikish jihozlari operatori.

3. Elektromontyor.

4. Traktorchi-mashinist.

5. Payvandlovchi.

6. Nasos va nasos stansiyalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash chilangari.

O'quvchilar bu yo'nalishlarga majburan hujjat topshiryapti (hech kimr majburlagan yo'q, boshqa yo'nalishlarning yo'qligi sabab).

O'ylab qarasaq, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash laboranti yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi qayerda, qachon, qanday amaliyot o'taydi? Aytaylik, shu guruhda 30 nafar o'quvchi o'qidi. Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash ombori ham yo'q. Bo'lganda ham 30 nafar ishchi ishlaydimi? Menimcha, bu yo'nalishga hududimizda talab yo'q.

To'qish-tikish jihozlari operatori yo'nalishiga ko'proq qizlar hujjat topshirgan (to'g'rirog'i, tikuvchi bo'lasan deb topshirtirilgan).

Dizayner-tikuvchi yo'nalishi tashkil etilsa, eng muhimi guruh uchun ham nazariyotchi, ham amaliyotchi ustoz taklif etilsa, natija yaxshi bo'lardi. Mutasaddilar va ota-onalar yordamida talabalarga kam foizli kreditlar ajratilib, tikuv mashinalari olib berilsa, ular shu yerning o'zidayoq ish bilan ta'minlanardi. To'g'ri, muassasaning o'zida barcha jihozlar bo'lishi mumkin, ammo ular muassasaniq. Qizlar kasbni o'rgangani bilan ish quroli bo'lmasa, faoliyat yurita olmaydi. Shuningdek, 2 yil davomida shu yerning o'zida amaliyotchi ustoz bilan muntazam shug'ullansa, hunarni puxta egallaydi. Hatto imkon bo'lsa, shu yerning o'zida xaridorbop mahsulot ishlab chiqarish imkoni bo'ladi.

Traktorchi-mashinist yo'nalishida 30 nafar bola o'qidi, deylik. Ular qayerda ishlaydi? Fermer xo'jaliklari mavjud. Ularning o'zlari, kerak bo'lsa, texnikasini boshqaradi. Bu sohaga ham ehtiyoj pastroq. 30 nafar yoshning ishli bo'lishi so'roq ostida.

Shu yo'nalish o'rniiga yigitlarga duradgor ustalar tayyorlaydigan yo'nalish tashkil etilsa, yog'och o'ymakorligini, mebel, eshik-romlar yasashni o'rgatishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu hunarlarni ham shunchaki o'rgatib qo'yish emas, dastgoh, zarur materiallar olish uchun kredit mablag'lari ajratilsa, yaxshi samaradorlikka erishilardi. Aslida maqsadimiz ham yoshlarimizni o'z yurtida ish bilan ta'minlash, ishsizlikning oldini olish emasmi?

Bu albatta, har bir bola, har bir oila bilan individual ishlashni talab qiladi. Uch tomonlama hamkorlik qog'ozda emas, amalda yo'lga qo'yiladi. Chunki biz har bir bolamizning hayotda yo'lini topishi uchun harakat qilyapmiz. Ularni moddiy va ma'naviy qo'llamasak, kutganlarimizga erisholmaymiz.

Elektromontyor va payvandlovchi ustalariga har doim ehtiyoj bo'ladi, chunki yurtimizda ko'p qavatli binolar, yirik ishlab chiqarish korxonalarini bar-

po etilyapti. Nasos va nasos stansiyalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash chilangari yo'nalishiga bir guruh o'quvchining jalb qilinishi — yana ishsizlikka olib keladi. Bitiruvchilarning 2-3 nafari ish bilan ta'minlanishi mumkin. Qolgani esa yo'q. Demoqchimanki, yo'nalishlar tanlanganda hududning imkoniyatlari inobatga olinishi kerak.

Bundan tashqari, bog'bonlar tayyorlansa, bog' ko'paytirishga imkonimiz bor. Hududimiz cho'lning o'rtasida. Atrofimizda o'zlashtirilmagan yerlar bor. Suv chiqarilsa kifoya. "Hunarli xor bo'lmas" degan inkor etib bo'lmas o'z haqiqatimiz bor. Pandemiya davrida bu maqol yana bir bor isbotini topdi.

Qayta o'z faoliyatini boshlayotgan kollejlarning yo'nalishlari belgilanishida hududning imkoniyatlari va o'ziga xosliklarini to'liq o'rganish kerak. Bo'lmasa yana eski holat — yoshlarni ishsizlikka tayyorlash davom etaveradi.

Mehri XOLIQOVA,
Qiziltepa tumanidagi
26-maktab o'qituvchisi

Mutasaddilardan javob keldi

"O'zimiznikidan ham bo'lsin!"

Gazetamizning 2020-yil 1-iyul sonida "O'zbekiston tarixi" telekanalida ko'proq chet el tarixidan hikoya qiluvchi kino va teleseriallar namoyish etilayotgani xususida "O'zimiznikidan ham bo'lsin!" sarlavhali maqola e'lon qilingan edi. Maqola yuzasidan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga yuborgan xatimizga javob keldi. Uni e'tiboringizga havola etamiz.

"Ma'rifat" gazetasining 2020-yil 22-sonida "O'zimiznikidan ham bo'lsin" sarlavhasi ostida e'lon qilingan (gazetaning internetdagi saytida 2020-yil 4-iyul kuni e'lon qilingan) O'zJOKU talabasi Yulduz Abdurashidovanning o'zi va facebook.com ijtimoiy tarmog'idagi respondentlari shaxsiy mulohazalariga tayanib yozilgan maqolasi "O'zbekiston" teleradiokanalini davlat unitar korxonasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali tomonidan o'rganib chiqildi. Unda ilgari surilgan fikrlar yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Muallif va uning so'rovida ishtirok etgan respondentlar "O'zbekiston tarixi" telekanalida nega o'zimizning tarixiy filmlar efirga kam berilmoqda? Nima uchun ushbu kanalda asosan chet el tarixiy filmlari namoyish etiladi?" mazmunidagi savollarni o'rtaga tashlaydilar.

Avvalo, shuni e'tiborga olish zarurki, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk tarixiy shaxslar, allomalar hayoti haqida hikoya qiluvchi sobiq ittifoq davrida yaratilgan badiiy filmlar barmoq bilan

sanarli. Borlari ham, barchaga ma'lumki, o'sha davr hukmron mafkurasi andozalari asosida yaratilgan bo'lib, tarixiy faktlar shu nuqtayi nazardan talqin etilgan. Lekin ushbu badiiy filmlarning, avvalo, mamlakatimiz kino san'ati durdonalari ekanligini inobatga olib, telekanalda "Tasmadagi tilsim" turkumida ana shu filmlarning namoyishi yo'lga qo'yilgan. Film namoyishi oldidan beriladigan ko'rsatuvda tarixchi olimlar, kino muxtassislari asarning yutuq va kamchiliklari, unga qanday yondashish zarurligi yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon qiladilar. Shu paytga qadar ana shu turkumda sobiq ittifoq davrida yaratilgan "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino", "Alisher Navoiy", "Nodirabegim", "Furqat", "Sen — yetim emassan", "Toshkent — non shahri", "General Rahimov", "Qirq birinchi yil olmasi", "Bardosh", "Muhabbat mojarosi", "Farhodning jasarati", "Dilor, dilor, dil va or" singari ko'plab badiiy filmlar namoyish etildi. Bundan tashqari, Mustaqillik yillarida yaratilgan



"Buyuk Amir Temur", "Marg'iyona", "Islomxo'ja", "Elparvar", "Vatan", "Berlin — Oqqo'rg'on" filmlari ham telekanal orqali efirga uzatib kelinmoqda.

"O'zbekkino" milliy agentligi bilan hamkorlikning mustahkamlanishi natijasida joriy yil boshidan buyon, so'nggi bir-ikki yil ichida yaratilib, tomoshabinlarning ijobiy munosabatlariga sabab bo'lgan "Qo'qon shamoli", "Abu Iso Muhammad at-Termiziy" (6 qismli serial), "Ilhaq", "101", "Sabru sadoqat" (5 qismli serial) singari filmlar

telekanal orqali birinchilardan bo'lib namoyish etildi.

Shu bilan birga, telekanal oldiga qo'yilgan vazifalar hamda o'z konsepsiyasidan kelib chiqib, jahon tarixida yorqin iz qoldirgan voqealar va shaxslarga bag'ishlangan xorijiy badiiy filmlarni ham muntazam namoyish qilib kelmoqda va bu tabiiy hol.

Yana bir jihatni e'tiborga olish zarurki, koronavirus pandemiyasi tufayli e'lon qilingan karantin sharoitida aholining uyda bo'lishini rag'batlantirish maqsadida mart, aprel, may oylarida "O'zbekiston tarixi" telekanali ham boshqa telekanallar qatori o'z dasturlarida badiiy filmlar hajmini oshirishga e'tibor qaratdi. Hozirgi paytda esa telekanalda kuniga bitta (bir kun avvalgi film takrori bilan qo'shib hisoblaganda ikkita) badiiy film namoyish etilmoqda. Dasturlarning qolgan qismi yurtimiz va jahon tarixiga oid ko'rsatuv, ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar, rolliklar uchun ajratilgan.

Biz "Ma'rifat" gazetasida e'lon qilingan mulohazalar muallifi Yulduz Abdurashidovaga telekanal faoliyatiga farq bo'lmagani uchun minnatdorlik bildiramiz. "Ma'rifat" gazetasiga esa kelgusi ishlarida muvaffaqiyat tilaymiz. Ishontirib aytamizki, tarixiy filmlar suratga olinsa, ularning namoyishini telekanalimiz kafolatlaydi.

A.HALIMOV,
direktor

Taklif

20 minutlik dars

Pandemiya maktab va ustozlarning jamiyatga qanchalar zarur ekanini isbotladi. Aksariyat insonlar aynan maktabda yaxshi bilim va tarbiya olgan bolalarning kelgusi hayotida muvaffaqiyatga erishish imkonini kengroq bo'lishini tushunib yetishdi. Jamiyat taraqqiyotini maktabsiz tasavvur qilib bo'lmayligi kundek ravshan bo'ldi. Dunyo bugun bitta masala ustida bosh qotirmoqda — karantin qachongacha davom etadi va ta'lim tizimini qanday yo'lga qo'yish lozim?

Bu borada aniq takliflar bilan o'troqlashmoqchiman.

Birinchisi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va boshqa ta'lim muassasalarida o'quv yilini 2020-yil 20-avgustdan boshlash kerak.

Bunda har bir dars 45 minutdan emas, balki 20 minutdan bo'lishi lozim. Sinf o'quvchilari 2 guruhga bo'linadi va darslar 2 smenada tashkil etiladi.

Ertalab soat 8.00 gacha ta'lim muassasasi ma'muriyati SEOM bilan hamkorlikda o'quv xonalari dezinfektsiyalashi kerak. Birinchi guruh soat 8.00 da darslarni boshlaydi va 5 minutlik tanaffuslar bilan birga jami 6 ta dars o'tadi va soat 10.30 da darslarni tugallab uyiga ketadi.

Ta'lim muassasasi ma'muriyati SEOM bilan hamkorlikda o'quv xonalari qaytadan dezinfektsiyalaydi va shamollatadi.

Ikkinchi guruh soat 12.00 da darslarni boshlaydi va 5 minutlik tanaffuslar bilan birga jami 6 ta dars o'tadi va soat 14.30 da darslarni tugallab uyiga ketadi.

20 minutlik darsning afzalliklari juda ko'p.

Eng avvalo, darslar o'z vaqtida jonli o'tkaziladi. O'qituvchi sinfda 30-40 nafar emas, balki 15-20 nafar o'quvchiga dars o'tadi. Sinfda va maktab hududida ijtimoiy masofa saqlanadi. O'quvchilarning bir joyda turish soni ikki barobar kamayadi. Har bir darsda uy vazifalari so'rashning o'rni 2 haftada bir marta oraliq nazorat sinovlari o'tkaziladi.

Bu jarayonda o'qituvchilarga 2 karra qiyin bo'lishi ham tabiiy. Chunki o'qituvchi 1 stavkaning o'rni 2 stavka ishlaydi. Ya'ni, bitta darsni takror ikki marta o'tadi.

O'qituvchilarning bu jarayondagi mehnatiga ish haqi to'lash, uni moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash uchun Respublika maxsus komissiyasi, Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi alohida to'lov tizimi ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quv yiliga tayyorgarlik ishlari, avvalo, o'quvchilarni darsliklar, o'qituvchilarni uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash,

qil ta'lim olishlari, pandemiya sharoitida ta'lim uzluksizligini ta'minlash, ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalarga uy sharoitida ta'lim berish uchun "Uy elektron maktabi" tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Uy sharoitida yanada chuqurroq bilim olishni istagan o'quvchi istagan fandan (o'zbek, ingliz, rus, qoraqalpoq tillarida) darslarni tomosha qilmoqchi bo'lsa UEM diskleri (dasturiy ta'minot) dan kompyuter yoki DVD yordamida foydalanishi mumkin.

Nafaqat o'zi ta'lim olayotgan maktabda faoliyat ko'rsatayotgan, balki respublika miqyosida tanikli o'qituvchilarning darslaridan uydagi, muolaja olayotgan shifoxonada, dam olayotgan oromgohda — xohlagan joyda va vaqtda foydalanishi mumkin. Tushunmagan savollariga mazkur darslarni qayta-qayta tomosha qilish yoki boshqa o'qituvchilarning shu kabi videodarslarini tomosha qilish orqali javob topishi mumkin. O'zini qiziqitirgan savollarni internet yoki telefon orqali loyiha tashkilotchilariga yetkazishi imkoniyati bor. Mazkur loyiha har yili Respublika ta'lim markazi va tegishli mutaxassislar tomonidan muntazam tahlil qilib va kamchiliklar bartaraf etib boriladi.

Loyiha bo'yicha qilinadigan ishlar rejasini: — o'z fanining bilimdonlari bo'lgan tajribali, fidoyi o'qituvchilarni jalb etgan holda barcha fanlardan amaldagi Davlat ta'lim standartlari asosida videodarslar hamda mazkur darslarga aloqador bo'lgan testlar bankini, qiziqarli o'yinlar, boshqotirmalar, mashqlar jamlanmasini yaratish (bir necha variantda); — to'plangan videodarslarni ingliz, rus, qoraqalpoq tillariga tarjima qilish;

— ruhshunoslar, surdo tarjimonlar, logopedlar va defektologlar yordamida mazkur videodarslarning surdo tarjimasini yaratish, subtittirlar yozish; — mutaxassislarni jalb etgan holda dasturiy ta'minot holiga keltirish;

— tayyor dasturiy mahsulotni (ko'p variantlilik asosida) tegishli idoralar va tashkilotlar ko'magida foydalanuvchilarga yetkazish.

Mazkur loyiha nafaqat bolalar, balki yoshidan qat'i nazar, o'z bilim, ilmiy salohiyatini oshirish istagidagi insonlarga yaqindan yordam beradi.

Qobiljon QOSIMOV, Chortoq tumanidagi 5-DIMI o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi



o'quv jarayonining pedagogik va metodik ta'minotini yaxshilash, zamonaviy AKTdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, ta'lim sifatini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirishni 15-avgustgacha yakunlash lozim.

Asosiy maktab tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lmagan joylarda esa, o'quvchilarning asosiy maktabga borishlari uchun avtobus xizmatlari yo'lga qo'yilishi dolzarb vazifalardan biri.

Boshlang'ich sinflar, ayniqsa birinchi sinflar masalasini shoshilmay, atroflicha ko'rib chiqish zarur.

Ikkinchi muhim taklif.

Onlayn darslar, elektron tizim kerak. Biroq aksariyat hududlarda internetning sifatli ishlamasligi, aksariyat xonadonlarda, ayniqsa qishloq sharoitida internet va televideniye har doim ham onlayn emasligi qiyinchiliklar tug'diradi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham onlayn ta'lim kutilgan natijani bermasligini o'zida aks ettirdi.

Bu muammoni bartaraf etish uchun "offlayn" usulidan foydalanish zarur.

Taklif etilayotgan loyiha internet, televideniye va hatto ki kompyuterlarsiz ishlashga mo'ljallangan.

"UEM" — UY ELEKTRON MAKTABI LOYIHASI

Loyihaning asosiy maqsadi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitishga jalb etgan holda o'quvchilarni bilim darajasini bir necha barobar oshirish, o'quvchilarning musta-

Maktablardagi o'qitish tizimida anchagina o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Maqsad ta'limni isloh qilish orqali o'quvchilarga yanada ko'proq bilim berishdir. Lekin bu harakatlar ta'limda keskin o'zgarish qila olmayapti. Nega? Ko'p yillik kuzatuvlarimdan kelib chiqib quyidagi fikrlarim bilan o'troqlashmoqchiman.

Bilimdon o'qituvchi ko'p bo'lsa...

Men o'rta tashlamoqchi bo'lgan masala o'qituvchi kadrlar masalasidir. Bugungi kunda maktablarda qanday o'qituvchilar faoliyat yuritayapti?

Tahlilga o'tishdan oldin tarixga bir nazar tashlasak, uzoq o'tmishga emas, 50 yil ortga nazar solamiz, ya'ni o'tgan asrning 70-yillariga. U paytlari o'qituvchilar eng obro'li insonlar toifasiga kirar edi. Chunki ularning maoshi boshqa kasbdagilar maoshidan ko'proq edi. Shu sabab hurmatlari joyida, ularga havas qilishardi. Shuning uchun ham maktab bitiruvchilarning eng bilimdonlari o'qituvchi bo'lishni orzu qilardi. Bilimdon o'quvchi shunday o'quvchiki, unda alohida qobiliyat bor, qabul qilish imkoniyatlari juda yuqori. Hamma fanlarni a'lo darajada biladi, hamma ishni uddalay oladi. Bunday o'quvchilar bitiruvchilarning taxminan 20%ini tashkil etadi. 80-yillardan boshlab ana shu 20% bilimdonlar nega o'qituvchi bo'lgisi kelmay qoldi? Bu yerda asosan yigitlar to'g'risida fikr yuritimiz, qizlar xususida keyinroq to'xtalamiz. Kuzatishimiz bo'yicha bilimdonlarimiz texnika, irrigatsiya, yuridik; keyinroq iqtisod, bank, moliya; undan keyin ichki ishlar, harbiy, kompyuter texnologiyalari va tadbirkorlik sohalarini afzal ko'rishyapti. Chunki bu soha vakillari maoshi o'qituvchilarnikidan ancha ilgari ketdi-da. Buning ustiga o'qituvchilar qanday ishlarga jalb qilinmadi? Bunday holni ko'rib turgan bizning bilimdonimiz o'qituvchi bo'lishni xohlamaydi-da, chunki u bilimdon.

Biz qachon bilimdon bitiruvchida o'qituvchi bo'lish orzusini shakllantirmas ekanimiz, ta'lim bir joyda depisib turaveradi. Buning qachon va qanday yil erishamiz? Xalq ta'limi xodimlari maoshini maksimal darajada oshirish kerakki, natijada o'qituvchi xalqi yashash tarzi bilan boshqa kasb egalardan ustunroq bo'lsin. Buni ko'rgan ota-ona farzandining o'qituvchi bo'lishini orzu qilsin, bizning bilimdonimiz hali quyi sinfgidayoq o'qituvchi bo'lishni istasin. Ha, albatta, bunga ancha vaqt kerak, mablag' kerak. Lekin O'zbekistonimiz kelajagi uchun mablag' topiladi deb o'ylayman. Har doim, hamma sohada xorijiy davlatlardan andoza olamiz. Quysi rivojlangan davlatni kuzatsak o'qituvchining maoshi eng yuqori, obro'si baland. Shuning uchun eng bilimdonlar o'qituvchi bo'lishadi.

Endi ayni vaqtda kimlar o'qituvchi bolib ishlayapti, degan savolga javob bersak. Eng bilimdonlar maoshi yaxshi bo'lgan sohalariga ketdi. To'g'ri, bitta-yarim o'qituvchilikdan boshqasida ishlamayman degan yigitlar ham bor. Lekin juda kam. Faoliyat ko'rsatib kelayotgan erkak o'qituvchilar toifasi borki, ular sabablarga ko'ra ichki ishlar yoki harbiy yo'nalishga o'ta olmay qolganlar. Maktabda faoliyat yuritsalar-da, boshqa ishlar bilan ham shug'ullanadi: kimdir kirakash, kimdir chorvador, kimdir usta va hokazo. Maktabdagi maoshga go'shimcha-da, shuning uchun ular butun imkoniyatlarini o'quvchi bilan ishlashga qaratmaydilar. Keyingi erkak o'qituvchilar toifasiga maktab davrida yulchitib o'qimagan, qandaydir yo'llar bilan oliy dargohni tugatib olganlar kiradi, yaxshiyam bularning soni ko'p emas.


Endi qizlarga to'xtalamiz. Bitiruvchilarning aksariyati o'qituvchi bo'lishni orzu qiladi. Va bugungi kunda o'qituvchilarning asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etadi, albatta 10-15 foiz xotin-qiz o'qituvchilar bugungi kunda eng ilg'or o'qituvchilar toifasiga kiradi. 50-60 foiz xotin-qiz o'qituvchilar esa maktab davrida yaxshi o'g'lanlar, ular fidoyilik ko'rsatib ishlagisi keladi, harakat qiladi, lekin bilim darajasi ozgina pand berib qo'yadi. Xullas, bu o'qituvchilar yaxshi ishlashyapti va yaxshi bitiruvchi chiqaryapti, lekin ishlari a'lo emasda.

Xulosa qilib aytganda, maktabda bilimdon, lider o'qituvchilar ko'p bo'lsa, bilimdon o'quvchi ko'payadi. Bilimdon o'quvchi ko'payisa bir kun kelib har sohada yetuk kadr ko'payadi. Demak, hammasi o'qituvchi maoshiga bog'liq. Faqatgina yetarli maosh bilimdon kadrni maktabga qaytara oladi. Shunday emasmi?

Nurmatam HASANOV,
Kasbi tumanidagi
31-maktab direktori

Iqrornoma

Ijtimoiy tarmoqda bir videoga ko'zim tushib hayratlandim. Bir ota ikkinchisiga onlayn darslar tugaganidan xursand ekanini aytib raqsga tushyapti (bu videoni ko'pchilik ko'rgan bo'lsa kerak). Ochig'i, unchalik hayron qoladigan joyi ham yo'q. Sababi, bolaga ta'lim berishdek mashaqqatli ishni uncha-muncha ota-onalar eplomasligini ish faoliyatim davomida ko'p bora kuzatganman. Ammo, e'tirof etish kerakki, karantin davrida onlayn darslar jarayonida farzandning imkon qadar to'laqonli bilim olishi uchun astoydil harakat qilgan ota-onalarni ham juda ko'p uchratdik. Lekin gap hozir bu haqda emas...



Biz, o'qituvchilar karantin boshlangandan buyon o'quvchilarimizni deyarli ko'rmadik. To'g'risi, ularni sog'indik. Telefon orqali muloqot qilib turgan bo'lsak-da, baribir o'zlariga yarashadigan sho'xliklari, turli bahonalarni o'ylab topadigan topag'onliklari, bir-birlariga bo'lgan samimiy, beg'ubor munosabatlari, ustozlariga bo'lgan sof va bolalarcha mehr-muhabbatlarini juda-juda sog'indik...

Shu kabi o'y-xayollar bilan o'quvchilarim uchun jamlangan hujjatlar jildini ochib har birining rasmiga qarab, ularning maktab

davridagi qiliqlarini eslab o'tirar ekanman, bundan 5-6 oy avval, aniqrog'i dekabr oyining oxirlarida ular bilan sodir bo'lgan bir voqea yodimga tushdi. Nima bo'libdi-yu, qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasida kichik kelishmovchilik yuzaga kelibdi. Aytarli jiddiy sabab yo'q. Shunchaki o'g'il bolalarning har doimgi sho'xligi. Darsdan so'ng ular bilan gaplashib tursam, bir o'quvchilim kelib, qulog'imga boshqa bir sinfdoshidan shikoyat qilib qoldi. Bu vaziyatda baqir-chaqir, ota-onani yo'qlash, direktor xonasiga boshlab borish kabi jazo

turlarining hech ham hojati yo'q edi (aslida, men hech qachon sinf o'quvchilarimning muammosi bilan direktor, direktor o'rinbosari kabi mutasaddilarni bezovta qilmaganman, har doim o'zim joyida hal qilganman). Shunday qilib, bu "to'polonchilar"ni aybiga iqrorg'ildirish chorasini o'ylay boshladim va bir-biridan kechirim so'rashlarini talab qildim. Ammo birortasi kechirim so'rashni o'ziga ep ko'rmadi, go'yoki, kechirim so'rsa bir o'zi aybdor bo'lib qoladigandek, "o'zidan bo'ldi, birinchi o'zi boshladi" kabi doimgi bahonalarni ro'kach qilib turib olishdi. Ayniqsa, o'g'il bolalar qizlardan kechirim so'rashni o'zlar uchun juda og'ir qabul qildi. O'ylab turib, o'quvchilarning barchasiga bir vara qog'oz olishlarini buyurdim.

— Ustoz, tushuntirish xati yozamizmi? — sekin so'radi olding'i qatorida o'tirgan o'quvchilim.

Biladiki, ko'pgina sho'xliklarning boshida doimo o'zi turadi, shu sabab eng avval o'zini "jazoga" tayyorlayotgan edi.

— Yo'q, afv xati yozasizlar, kechirim xati, — dedim yolg'onidan qovog'imni solvolib.

— Iye, shunaqa xat ham

bo'ladingmi? — mahmadonalik qildi boshqasi.

— Ha, bo'ladi, avval bo'lma-gan bo'lsa, endi bo'ladi, — dedim yana battar qovoq solib. Hozir hammangiz qachon kimnidir nima sababdan xafa qilgan bo'lsangiz, qo'lingizdagi qog'ozga yozing va shu tariqa sinfdoshingizdan kechirim so'rang. Bilaman, bir-biringizni xafa qilganingizdan o'zingiz ham xursand emassiz, ammo g'ururingiz tufayli kechirim so'ray olmayapsiz. Shuning uchun hamma ichidagi bor gaplarini mana shu qog'ozga tushirsiz. Shunda o'zingiz ham ancha yengil tortasiz. Menga ishonib, hech biringizning yozganingizni oshkor qilmayman.

Shundan so'ng bolalar u yoq-bu yoqqa qarab olib yozishga tushib ketdi. To'g'risi, o'zim ham biroz shoshib qoldim, sababi, ularning yozishlaridan yozmasliklariga ko'proq ishongandim. Chunki endigina 12-13 yoshdagi bu bolalarning qaysarliklarini yaxshi bilardim. Hatto ularni majbur ham qilganim yo'q. Biroz vaqt o'tib birin-ketin "afv xatlari" stolim ustiga teskari qilib qo'yila boshlandi, e'tibor bering-a, teskari qilib. Mana, ularning yana bir g'ururi balandligining namoyishi (shu yerda qaysidir ma'noda g'ururli, oriyatli o'g'il-qizlarimiz borligidan faxrlanib ham qo'ydim). Sinfdoshlar ahil-inoq bo'lishlari lozimligini yana bir karra uqitirib ularga javob berdim. O'zim esa qo'limdagi iqrornomalar bilan tezroq tanishish ishtiyogida bir-bir ko'zdan kechira boshladim.

"Gavhar, men seni xafa qilgan bo'lsam kechir", "Gulse-

var, ruchkangni olib qo'yganimda xafa bo'lgansan. Kechirim so'rayman", "Abubakr, Husniddin, Ilhom, sizlarni ahmoq qilganim uchun kechiringlar", "Iroda, seni xafa qilganman, bundan pushaymonligimni aytmaganman, meni kechir", "Ilhom jo'ra, seni xafa qilmoqchimasdim. Meni kechirolsang, kechir", "Mehribon, senga qor otganimda ko'zingga tekkan edi. O'shanda yig'laganingda men pushaymon bo'lganman. Senga aytmaganim, meni kechir"...

O'quvchilarimning "afv-noma"larini o'qir ekanman, beixtiyor ko'zlarimdan yosh quyildi. Yo'q, ularning bir-birlariga bergan "ozor"lari uchun emas, ularning har birida ulkan va mehrga to'la qalb jo'sh urib turganidan, qaysidir ma'noda bir-birlariga yuraklari achishi mumkinligidan, bir-birini har qanday sharoitda ham ayashlaridan ta'sirlandim. Bolalik sho'xliklari bilan bir-birlarining sochidan tortsa-da, ruchkasini olib qo'ysa-da, qor otib, quv-lashib, hatto nimalardir deb "ahmoq" qilishsa-da, baribir sinfdoshlarini o'zgacha mehr bilan, bolalarcha sof tuyg'ular bilan yaxshi ko'rishlariga iqrorg'ildim. Shu kuni o'quvchilarimni qaytadan kashf qilganday bo'ldim. Mana, bugun ularning barchasini ich-ichimdan ichikib, yana o'sha kungi ichki hayajon bilan, ko'zimda miltillagan yosh bilan sog'inib o'tiribman.

Aslida, men ularga yozgan-laringizni hech kimga ko'rsatmayman, deb va'da bergan edim...

Fotima HASANOVA,
Payariq tumanidagi
97-maktab o'qituvchisi

Tavsiya

Yangicha uslubdagi ta'lim

unda nimalarga e'tibor berish kerak?

Kechagina gavjum sinfxonalarda yuzma-yuz muloqotli o'tilgan darslar to'satdan raqamli platformaga ko'chgani pedagoglar uchun ham katta sinov bo'ldi. Ustozlar sa'y-harakatlari bilan kundalik.uz portali, ijtimoiy tarmoqlar, videomuloqotlarda ta'limga oid yangi kanal va guruhlar paydo bo'ldi. Onlayn dars — bu yangicha uslub bo'lib, an'anaviy darsdan tubdan farq qildi.

Har bir o'qituvchi endi sinfxonadagi yondashuvlarni qisman unutib, virtual sinfxonalarga moslashdi. Va ta'til davrida to'garaklar faoliyati ham shu tarzda davom ettirilmoqda. Buning ham o'ziga yarasha talab va shartlari bor. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berishda samarali foydalanishga oid tavsiyalar ustozlar uchun qo'l keladi:

✓ baholashga emas, rag'batlantirishga diqqat qiling!

O'quvchi bahoning o'rmiga o'qituvchisidan munosabat olsa, tezroq o'rganadi. O'quvchingiz yuborgan ishda xatolik

bo'lsa, past baho qo'yishga shoshilmang. Bolani ham tushuning — hozir sizning holatingiz qanday bo'lsa, uyd dars tayyorlayotgan o'quvchining ruhiyati ham shu qadar ta'sirchan. Shuning uchun, o'quvchi virtual ta'limga moslashib ol-gunicha unga ruhan dalda bo'ling.

✓ dars tarkibini rejalashtiring. Agar videokonferensiya tizimi yoki ijtimoiy tarmoq orqali o'quvchilar bilan virtual darslar tashkil qilayotgan bo'lsangiz, darsning 15—20 daqiqa davom etishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, ix-chamgina taqdimot ham tayyorlang.

✓ taqdimot tayyorlashda nimalar-

ga e'tibor berish kerak? Taqdimotda mavzuni asosiy tushunchalar bilan yoritib, gaplar va fikrlar imkon qadar qisqa, tushunarli bo'lsin, yangi tushuncha va fikrlarni ranglarda, suratlar bilan ajratib bering, taqdimotni darslikdan olingan suratlar va uzun matnlar bilan to'ldirishdan qoching.

✓ bolaning diqqatini jalb qilish — bosh maqsad bo'lsin. Taqdimotni bolalarning ota-onalariga tashlab bering yoki videokonferensiya jarayonida ekran orqali namoyish qiling.

✓ o'zlashtirishi past bolalarni alohida nazoratga oling.

Hammaning imkoniyati teng emas. Bunday bolalar bilan alohida ishlasangiz, katta yordam bo'ladi. Vazifa berishdan avval bu bolalarning imkoniyatini ham hisobga oling. Ularning ota-onalari bilan aloqani uzmang. Pandemiya sinfxonada faol bo'lgan o'quvchilarning ham o'zlashtirishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuni hisobga olib, har bir o'quv-

chining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yondafaringizga yozib boring.

✓ internet resurlardan faol foydalaning va tavsiya qiling.

Bugungi kunda ko'p mavzularni internet tarmog'ida o'zbek tilida ham topish mumkin. O'zbek tilidagi eduportal.uz, xanakademiyasi.uz, ziyonet.uz, edumarket.uz platformalari qulay resurslar hisoblanadi. O'quvchilarga mavzular bo'yicha zarur resurslarni tavsiya qiling. Internet orqali ko'plab xalqaro bepul ta'lim resurslarini topish mumkin.

Hozirgi vaziyat barcha sohalar kabi maktab ta'limi tizimini ham sinovdan o'tkazmoqda. Muhimi, yangi imkoniyatlardan foydalanish va yondashuvni o'zgartirib xato qilishdan qo'rqmang. Xato qilyapsizmi, demak — o'zgarishga harakat qilyapsiz. Asosiy, o'quvchilarga yordam berishga urinmoqdasiz. Bu — professionallik, fidoyilik va tajriba belgisidir.

Shoiraxon SOLIJONOVA,
Toshkent shahridagi
204-maktab o'qituvchisi

Ta'lim: tarix masalasi va maktab darsliklari holati

O'zbekistonda ta'lim sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim shartlaridan biri bu umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish bilan bog'liqdir. Tarix bo'yicha sifat jihatidan yangi o'quv adabiyotlarini yaratish ular mazmunida tarix fanining yutuqlari, o'tmishdagi voqealar va zamonaviy jarayonlarni xolis aks ettirish zaruriyati ilmiy anjumanlarda va ommaviy axborot vositalarida keng muhokama qilinmoqda.

Hozirda mavjud "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" fanlarining maktab darsliklari bo'yicha tanqidiy mulohazalar quyidagicha: matn haddan ortiq tarixiy materiallarning bayoni bilan to'ldirilgan hamda rasmlar va tarixiy xaritalar bilan yetarlicha boyitilmagan, madaniyat tarixi va odamlarning kundalik hayoti talab darajasida yoritilmagan, XIX—XX asrlar O'zbekiston tarixi bo'yicha darsliklar siyosiy voqealar tavsifi bilan to'yingan, 5-sinf o'quvchilari uchun "Tarixdan hikoyalar" darsligining mazmuni uning nomiga mos kelmaydi, negaki unda katta sinflarda o'rganilayotgan ayrim mavzular qisqacha hikoya qilib beriladi. Va nihoyat, har doim bir xil mualliflarning darsliklari tanlov-tender g'olibiga aylanadi, degan xulosa qilinadi.

Mulohazalar ko'p jihatdan adolatli. Biroq munozaralar payti darsliklardagi kamchiliklarning asosiy sabablari umumiy tarzda talqin qilinadi. Ko'pincha, faqat xato va kamchiliklar mavjudligi qayd etiladi, ularni bartaraf etishga yordam beradigan amaliy takliflar kam. Ushbu jihatlarga kelsak, bu masala deyarli muhokama qilinmaydi.

Darsliklar va ularning mualliflariga hozirgi paytda qo'yiladigan talablar yetarli emas. Darslik matni tarixiy materiallarning murakkab, sof axborot taqdimotiga asoslanmasligi kerak va, albatta, o'quvchilarning yoshi va qobiliyati xususiyatlarini hisobga olish lozim. Ta'limning vazifasi — o'quvchining bilim va ijodiy qobiliyatini hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirish bo'lib, o'rganishga qiziqish hissini shakllantirishi lozim. Shuning uchun darsliklarning mazmun-mohiyati mutaxassis — tarixchining kasbiy bilim darajasi, uning ma'lum bir voqealarni ilmiy jihatdan to'g'ri, tushunarli ravon tilda yoritish olish imkoniyati, shuningdek, o'qituvchi — metodistning yondashuvi, ya'ni darslik mualliflarining sifatli ishi bilan bog'lanadi.

O'quv adabiyotlari tarkibidagi ko'plab kamchiliklar O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi holati, o'tmish voqealarni qayta ko'rib chiqish va baholash jarayoni bilan belgilangan. Birinchi avlod darsliklari o'tgan asrning 90-yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, bu paytda tarix ilmiya eski illatlardan voz kechilgan, biroq yangi qarashlar hali yetarlicha shakllanmagan edi. O'sha davrda

muayyan darajada yangilash fikr-xulosalarga kelib, tarixiy masalalarga ortiqcha ehtiros bilan, biryoqlama yondashish kabi jihatlardan uzoqlashilmadi, tanqidiy mulohazalarga e'tibor berilmadi, senzura yo'qoldi va plagiat — boshqalardan o'zlashtirish usuli yuzaga chiqdi.

Shunday vaziyatda, ilgari so'ngi davrlar tarixi, jumladan jamiyatning "sotsialistik" rivojlanishi va "partiya" qurilishi masalalari bilan shug'ullangan mutaxassislar O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixi hamda jahon tarixini tadqiqot obyekti sifatida o'rganishga, shuningdek, dars berish va yangi darsliklar yaratishga barcha qodir degan xato tushuncha paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida tarixni qayta ko'rib chiqishga urinish ba'zan o'ta bema'nilik darajasiga yetdi, ayrim nashrlarda ilm, mafkura va zamonaviy afsonalarning qorishib ketishi namoyon bo'ldi. Bunday asarlarda o'tmishning mutlaqo'ijobiy yoki aksinchasalbiy tasvirini yaratish uslubi o'z aksini topdi.

O'sha paytlarda 5-sinf uchun darslikda siyosiy tarixga oid juda murakkab hikoyalar o'rin oldi. Biroq, 11-12 yoshdagi o'quvchilar yangi qo'llanmaning mualliflari ularga nimani tushuntirishga harakat qilayotganlarini anglashmasdi. Bu borada boshlangan ish XIX—XX asr O'zbekiston tarixi 9-10-sinflar uchun darsliklarida ham davom ettirildi. Ular tarixiy materialning tushunish qiyinligi va haddan tashqari siyosiydushgan xususiyati sababli maktab o'quvchilari orasida katta qiziqish uyg'otmadi. Jahon tarixi fani bo'yicha ham darsliklarni yozish bilan bog'liq alohida muammolar mavjud edi. XXI asr boshida nashr etilgan darsliklarda turli xil kamchiliklar turlicha shakllarda saqlanib qoldi. Shu jumladan, o'quv materiallarini o'quvchilar yoshi va qobiliyatiga mos, tushunarli, sodda va ravon tilda bayon etish talabi yetarlicha amalga oshirilmadi.

Umumta'lim maktablari uchun "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" bo'yicha davriy nashr etilgan deyarli barcha darsliklarda amaliy jihatdan bir xil uslubiy ko'rsatmalardan foydalaniladi. Ular o'qituvchi-metodist V.A.Kostetskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 1998-yili 6-sinf o'quvchilari uchun chop etilgan "O'zbekiston tarixi" darsligi-

ning bo'limlarida qo'llanilgan. Takomillashtirilgan holda mazkur metodikadan uning muallifi "Tarix. Qadimgi dunyo" darsligida foydalandi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarixiy materiallar asosiy qismda berilgandan so'ng ularning muhim ma'lumotlari "Eslab qoling!" va "O'zingizni sinab ko'ring!" ruknlarida takrorlanib, darslik matnida o'z ifodasini topgan. So'ngra o'quvchilar "tayanch konspekt" materiallaridan foydalangan holda o'z bilimlarini sinab ko'rish, shuningdek, har bir mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Afsuski, mavjud darsliklarning ba'zi mualliflari yuqoridagi tilga olingan uslubiy ko'rsatmalarning faqat tashqi ko'rinishidan namuna sifatida foydalanishgan. Ushbu mavzuni yanada rivojlantirmasdan turib, yangi avlod darsliklarida o'quvchilarning jamoaviy ishlashi, fikr va munozaralar almashishi, mavzuga qiziqishni shakllantiradigan va o'z nuqtayi nazarini taqdim etishni talab qiladigan innovatsiya mazmuniga ega vazifalarni ishlab chiqish, shuningdek, uslubiy jihatlarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tuzish zarur. Bunday yondashuv darslikning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Darsliklarda xaritalar kamligi borasidagi e'tirozlar o'rinli. Biroq bu jiddiy kamchilikni bartaraf etishga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. 2004-yilda "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasida umumta'lim maktabining barcha sinf o'quvchilari uchun rangli tarixiy xaritalar atlaslari, shuningdek, "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" fanlari bo'yicha kontur xaritalari ishlab chiqilgan. Ular 2005–2007, 2015, 2017-yillarda nashr etilgan, ammo afsuski, "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi-ning moliyaviy imkoniyatlarini cheklanganligi sababli, mazkur xaritalar kam sonli tirajda chop etilgan (1000–3000 nusxada). Shu sababli ular respublikamizdagi aksariyat maktablar kutubxonalariga, jumladan, o'lis qishloqlarga yetib bormadi. Ta'lim sohasida xorijiy tajribadan foydalanish zarurati haqida tez-tez gapirib turamiz, lekin shu bilan birga biz o'z tajribamizga beparvo munosabat bildiramiz. Shuning uchun har bir yangi avlod darsliklari tiraji nuqtayi nazaridan kelib chiqib tarixiy xaritalarni nashr etishni ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekiston universitetlarida o'lkashunoslik va turizm sohaslariga oid ta'lim yo'nalishlari ochilgan. Shundan kelib chiqqan holda umumiy

o'rta ta'lim maktablarida o'lkashunoslik fanini o'qitish masalasi muhimdir. O'lkashunoslik fanining turli bilimlarni birlashtiruvchi tabiati (tarix, etnografiya, san'at, geografiya va ekologiya), tug'ilib o'sgan Vatan bilan yaqindan tanishish va ekskursiya — anglash, o'rganishga, atrof-muhit, tabiat va tarixiy-madaniy yodgorliklarga hurmat bilan qarash va ularni asrab avaylashga yordam beradi. Bunday holda, 5-sinfda tarixni maxsus fan sifatida o'qitishga hojat qolmaydi.

Aynan doimo bir xil mualliflarning darsliklari tender g'oliblari ekanligi haqidagi masalaga to'xtalib o'tsak. Jamoatchilik muhokamasi jarayonida muammoning asosiy sabablari chetda qolmoqda. Bu olimlar va o'qituvchilarning ilmiy, uslubiy va ijodiy imkoniyatlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi bilan bog'liq. Fundamental ilmiy loyihalar ustida ishlaydigan ko'plab tarixchi olimlar darslik yozishga urinib ko'rmaydi. Ularning ushbu muhim ishga qo'shgan "hissasi" ba'zida ibratli tanqid bilan cheklanadi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan e'lon qilingan tarix darsliklari tanlovi- ga yangi darslik qo'lyozmasining odatda bitta yoki ko'pi bilan ikkita talqini topshiriladi. Shuning uchun eng yaxshi variantni tanlash imkoniyati cheklangan.

Yana bir muhim masala. Darslik — bu ilmiy monografiya emas. Ilmiy-tadqiqot ishlarida, tarixiy voqealarga oid miqdor va sifat jihatidan ma'lumotlarning keng tahliliga ijozat berish nuqtayi nazaridan, bunday yondashuvga umumta'lim maktablari uchun darsliklarda har doim ham yo'l qo'yilmaydi. Maktab o'quvchisi uchun tarixning har bir yuz yilligida insonlar tomonidan ham ijobiy, ham ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanuvchi salbiy tajribalar to'planganligini, o'sha asrga xos tarix saboqlari o'tgan davrlarning xatolarini takrorlashdan ogohlantirish kerakligi zaruratini tushuntirish juda muhimdir.

Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida tarix fanini o'qitish asosida yosh avlodda insonning jamiyatdagi o'rni haqida yuksak ma'naviyat muhojihatiga ega bilimlar, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyalari shakllantirish lozim. Tarix bunyodkorlik, odamlarning bag'rikenglik, adolat va ezigulikka intilishi kabi ko'plab ibratli namunalarni o'zida saqlab qolgan. Bularning barchasi hozir biz yashayotgan va kelajakka intilib yangilanayotgan dunyoda muhim ahamiyatga ega.


Anatoliy SAGDULLAEV,
tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi a'zosi

PISA fikrlashga undaydi

Ma'lumki, PISA — o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, o'g'il-qizlarning maktab davrida olgan bilim va ko'nikmalarini aniqlaydi. PISA testlari mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlabgina qolmay, balki bir-biriga o'xshamagan fikrlar va yechimlarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Bu sinov orqali o'quvchi hayotda muammoli vaziyatlardan bemaol chiqib keta oladi.

Yangi mavzuni o'tdik, tushuntirdik, uyya vazifa berdik. O'quvchi vazifani formula asosida to'g'ri bajarib keldi, "besh" baho qo'ydi. Bu bilan nima rivojlana-di, faqat formula yodlash-u, formulaga qo'yib javobini chiqarishmi? O'quvchi-lar chiziqli funksiya va uning grafigi yoki kvadrat tenglamani faqat formulalar aso-sida yechishni emas, uni hayotga bog'lab o'rgana bilishi lozim. PISA sinovining asosiy maqsadi ham shu. Misollarga qaraylik.

1. Anvar uyiga 20 ta tuxum olib ketdi. Agar u tuxumlarning barchasini sindirmasdan olib borgani rost bo'lsa, quyidagilardan to'g'ri variantni toping.



- a) 3,4
- b) 2,4
- c) 3,5

O'quvchilar fikrlashi, chuqurroq o'ylashi kerak. Ular bir-biri bilan masla-hatlashishi, ustozidan yordam so'rashi mumkin emas.

To'g'ri javob: B.

Izohlaymiz: A va D variant yechim bo'la olmaydi. Sababi, 20 raqamini bu variantdagi sonlarga bo'lsak, qoldiq qola-di. Bu tuxum singan degani. $20:3=6$ (2 qoldiq).


A va B variantlarda 3 qatnashyapti. Qoldiq nimaningdir parchasi, biror bo'la-

gi, biror qismi. Shuning uchun A va D variantlarni to'g'ri yechim deb ololmay-miz. 20 sonini 3 ga bo'lganda, 2 qoldiq qoldi, demak, 2 ta tuxum singan. Bizga esa tuxumlarning sindirmasdan olib borilgani ma'lum. Demak, javob B variant. Chunki 2 va 4 qoldiqsiz bo'linadi: $20:2=10$; $20:4=5$.

O'quvchi javobni shu tarzda izohlashi kerak. Bitta masalaning o'zida o'quvchi ikki mavzuning hayotiy jihatlarini ko'radi va masalaning bo'linish alomatlarini ham-da qoldiqli bo'lishga bog'lagan holda yechimini topadi. Mantiqiy fikrlash darajasi yuqori o'quvchi, albatta, hayotda ham muammolarni hal eta oladi.

Yana bir misol.


2. Anvar, Sardor, Aziz ismli bolalar kamon otish musobaqasi o'tkazishdi.



Ular kamondan 3 martadan o'q uzish-di. Natija yuqoridagi chizmada ko'rsatil-gan. Albatta, o'quvchilar Azizni g'olib deb topadi. Chunki otgan o'qlari marka-zga yaqin, lekin biz masala shartini yax-shilab o'qib, fikrlab, har birining otgan o'qi tekkan joyini muhokama qilmog'imiz, markazga yaqinini emas, mo'ljalni to'g'ri olganini g'olib deb topishimiz lozim. De-mak, g'olib Sardor. Chunki uning 3 ta o'qi ham bitta halqaga tekkan. Aziz bilan Anvarning o'qlari boshqa-boshqa halqa-larda joylashgan. Ular mo'ljalni to'g'ri

olmagan. Bu masalani ko'plab misollar yechimiga bog'lash mumkin yoki, aksin-cha, misollarni ushbu hayotiy masalaga bog'lab yechimini topish mumkin.

3. Biologiya o'qituvchisi sinfni ikki guruhga ajratib test oldi. Quyidagi ustunli di-agrammada A va B guruh o'quvchilarining biologiya fanidan test natijalari keltirilgan.



A guruhining o'rtacha bahosi 62,0 va B guruhining o'rtacha bahosi 64,5. Agar o'quvchi to'plagan ball 50 va undan yuqori bo'lsa, u vazifani bajargan hisoblanadi. Diagrammaga qarab o'qituvchi vazifani B guruh A guruhdan yaxshiroq bajargan degan xulosaga keldi. A guruh o'quvchilari uning fikriga qo'shilishmadi. Ular o'qituvchini B guruh o'quvchilari ulardan yaxshiroq topshirmaganligiga ishonitirishmoqchi.


O'quvchilarga siz advokatsiz. A gu-ruhni himoya qiling, degan shart qo'yila-di. Ular mantiqiy fikrlab, diagrammalar-ga qarab, A guruhning yutug'ini topib ko'rsatishi kerak.

Javob: baholangan va baholanmagan o'quvchi soniga qarab A guruhni himoya qilish mumkin. Shart bo'yicha tahlil qilin-ganda, A guruhdan bir o'quvchi bahol-

anmagan. B guruhdan esa ikki o'quvchi baholanmagan. Demak, A guruhda olti o'quvchidan faqat bir nafari baholanmagan, besh nafari baholangan. B guruhda olti o'quvchidan ikki nafari baholanmagan, to'rt nafari baholangan. Tahlil natijasiga ko'ra, A guruhi testni yaxshi topshirib, g'olib deb topilishi kerak edi deb A guruhi himoya qilish mumkin.

Piyoda va velosipedchi harakati grafigidan foydalanib to'g'ri mulohazani toping:

- A) A obyekt velosipedchi, B obyekt piyoda
- B) Velosipedchi bir marta dam olgan, piyoda ikki marta
- C) Piyoda va velosipedchi uchrashguncha turli masofani o'tishgan
- D) Birinchi to'xtash joyigacha piyoda tezligi 4 km/s, velosipedchi tezligi 14 km/s bo'lgan



Javob: B variant. Grafikdan ko'rinib turibdi: siniq chiziqli piyodaning harakat chizig'i, uzoq chiziqli velosipedchining. Shunday ekan, piyoda ikki marta dam olgan, velosipedchi bir marta.

Donoxol MURODOVA, Sirg'ali tumanidagi 6-IDUMning matematika va informatika fanlari o'qituvchisi

Tajriba

Poyezdchadan shajara daraxtigacha

O'quvchilar bilan yakka tartibda va jamoaviy ishlash o'z natijasini beradi. Turli interaktiv metodlardan foydalanib, dars jarayonida barcha o'quvchilarning darsda faol ishtirokini ta'minlashga erisha olamiz. Nemis tili darslarida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ba'zi interaktiv metodlardan foydalanish mumkin.

DAS ZÜGCHEN (Poezdcha)

Ushbu qiziqarli mashqni bajarish jara-yonida har bir yangi so'z o'quvchilar tomonidan navbati bilan talaffuz qilinadi. Bu harakat o'qituvchiga har bir o'quvchi talaffuzini tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek, barcha o'quvchilarning dars-da to'liq ishtirokiga erishiladi. Masalan, bir guruhda 15 o'quvchi bo'lsa, har bir so'z 15 marta talaffuz qilinadi. Interaktiv metodning ikkinchi qismida o'quvchi-lar o'tilgan mavzulardagi o'rganilgan

so'zlardan foydalangan holda, o'rganilay-otgan mavzudagi yangi so'zlarni bog'lab gaplar tuzishlari kerak. Eng faol o'quvchi g'olib hisoblanadi. Shu tariqa o'quvchilar uchun yangi so'zni yodlash ancha oson kechadi. (Ushbu mashq o'quvchining fonetik va leksik, grammatik ko'nikma-larini rivojlantiradi).

ICH BIN DER BESTE LEHRER (Men eng zo'r o'qituvchiman)

Ushbu qiziqarli mashqda o'quvchi-lardan doimiy ziyorlik talab qilina-

di. Ya'ni o'quvchilar dars davomida bir-birlarining grammatik, leksik, fone-tik xatolarini tuzatib boradilar. Eng ko'p qatnashgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bu interaktiv metoddan darsning barcha qismlarida foydalanish mumkin (Ushbu mashq o'quvchining doimiy ravishda diqqatini jamlashga xizmat qiladi).

FÜLLT DIE LÜCKEN AUS (Nuqta-lar o'rmini to'ldir!)

Ushbu qiziqarli mashqda o'quvchi-larga tushirib qoldirilgan so'zlar beril-maydi, balki o'quvchilarning o'zlari mos so'zni topib qo'yishlari kerak. Ushbu mashq oxirida variantlarning har xilligiga erishiladi. Mashq jarayonida o'quvchi-lardan kreativ fikrlash talab qilinadi: Im ... habe ich viele Waren.... Sie sind nicht Dort habe ich meinen Fre-und O'quvchilarning natijalari tez-

korlik bilan ma'lum qilinadi. Mashqning keyingi bosqichida ishtirokchilar kim qaysi so'zni qo'llaganligini yoddan aytib berishlari kerak. Ushbu interaktiv metod o'quvchining nafaqat grammatik va lek-sik ko'nikmalari, balki o'g'zaki nutqi rivo-jlanishiga ham hissa qo'shadi.

DER STAMMBAUM DER WÖRTER (So'zlarning shajara daraxti)

Ushbu qiziqarli mashqda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi tomo-nidan muayyan vaqt belgilanadi. Shu vaqt ichida guruh a'zolari tezkorlik bilan doska oldiga kelib unga yozib qo'yilgan o'zak so'zdan o'zakdosh so'zlarni hosil qilish-lari kerak. Masalan: veruf (kasb), veruf-s-bezeichnung (kasb nomlari), traumberuf (orzu qilgan kasb), Berufserfahrung (kas-biy tajriba) va hokazo. Mashqning keyingi bosqichida ishtirokchilar o'zlari yozgan o'zakdosh so'zlar ishtirokida gaplar tuz-ishlari kerak.

Nazirjon SAFAROV, Romitan tumanidagi 29-maktabning nemis tili fani o'qituvchisi

Mutaxassis minbari

Bolalarga xos va mos maqom kerak

"Shashmaqom" — poyoni yo'q mavzu. Eng asosiysi, uni butun jahon tan oldi. 2003-yil noyabr oyida "Shashmaqom" UNECKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb tan olindi. 2008-yilda esa umumjahon Rerezentativ ro'yxatiga kiritildi.

Maqom musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy hamda shakl tuzilishlari, lad va usul tizimlari hamda ilmiy va amaliy asoslari puxta ishlangani bilan farq qiladi. Maqom musiqa, she'riyat hamda raqs san'atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy durdonadir.

Maqomlar ilk davrlarda tarqoq holda rivojlanib, XIII asrda Safiuddin al-Urmaviy tomonidan o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirilgan. XVII asrdan so'ng o'n ikki maqom negizida yangicha milliy va mahalliy shakllar vujudga keladi. Buxoroda (XVIII asr o'rtalari) saroy sozandalari, xonanda va bastakorlarning ijrochilik faoliyatida shashmaqom uzil-kesil shakllangan bois Buxoro maqomlari deya yuritilgan. Parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmuyi — maqomlar turkumidan iborat "Shashmaqom" o'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida katta o'rin tutadi.

O'zbekistonda maqom asarlari va turkumlari — Buxoro "Shashmaqom"i, "Xorazm maqomlari" hamda "Farg'ona — Toshkent maqom yo'llari" — Toshkent maqom yo'llari — Turkumlar, shuningdek, uning lokal variantlari — "Toshkent irog'i", "Qo'qon irog'i", "Samarqand ushshog'i", Farg'ona "Surnay maqom yo'llari", Xorazm "Dutor maqom turkumi", "Feruz" turkumi va boshqalar mavjud. Xorazm, Farg'ona — Toshkent maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etildi.

Uning asosiy maqsadi o'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar an'analari, buyuk bastakorlar, hofiz hamda sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash, targ'ib qilish, xalqimizni musiqiy merosimizning eng go'zal an'alaridan bahramand etish, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kamol toptirish kabi qator vazifalardan iborat.

Bu asarlar teran falsafiy hamda lirik kayfiyatni ifodalab, tinglovchilardan juda katta eshitish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. So'nggi yillarda Yevropa olimlari shashmaqom kuylari orqali ayrim bemorlarni davolayotgani ham mumtoz



musiqa, xususan, maqomlarning qanchalik zalvorli ekanidan dalolatdir.

I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" tadqiqoti o'zbek maqomshunosligi rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. Akademik Yunus Rajabiy tomonidan turli ijrolar asosida yozib olingan maqomlar "O'zbek xalq musiqasi" va "Shashmaqom" nomi bilan nashr etildi. Qolaversa, 1983-yildan maqom ijrochilarining respublika tanlovi (1991-yildan Y.Rajabiy nomidagi) muntazam o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, 1992-yildan hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasidagi "Musiqiy sharqshunoslik" va "An'anaviy ijrochilik" kafedrasida shashmaqomni ilmiy o'rganish va amaliy o'zlashtirish oliy, o'rta maxsus va boshlang'ich ta'lim bosqichlari negizida yo'lga qo'yilgan.

Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etildi.

Respublikamizning aksariyat bolalar musiqa va san'at maktablarida, ixtisoslashtirilgan maktablarda maqom yo'nalishidagi ansambllar tashkil etilmoqda. Respublikamiz madaniyati va san'ati sohasida juda ko'plab

yangiliklar bo'lyapti va davom etmoqda. Ammo tizimda yechimini kutayotgan muammolar hali anchagina. Eng asosiysi — bu bolalar. Ming shukrlar bo'lsinkim, milliy musiqamizni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, musiqa maktablari, maktablar, kollejlarda asosiy darslar sifatida o'tish kerak, degan xulosaga keldik.

Ozroq san'at kollejida ishladim. Maktab va kollejlarda bo'ladigan tanlovlarda hakamlar tarkibida qatnashib turaman. Lekin afsuski, bu borada hali aniq bag'ishlaydi. Bu meros avlod-dan-avlodga, ustozdan shogirdga og'zaki tarzda yetib kelgan. Maqomlarning kuy-ohanglari har bir xalqning o'ziga xos musiqa boyliklari zaminida, san'atchi sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot zaminida yuzaga kelgan. Musiqaga doir eski manbalar IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan Al-Kindiy, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy, Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy singari buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asoslab berilgan. Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqa" kitobi, Zaynilobiddin Husayniyning "Qonuni ilmi amali musiqi", Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy", Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois", Darvishali Changiyning "Musiqiy risola"sida o'z zamonasining mashhur musiqa san'ati namoyandalarga tegishli ma'lumotlar bayon etilgan.

Xalq musiqa asarlarining qaysi birini olib qaramang, ular u yoki bu maqom, yoki uning sho'ba pardasi, kuy tuzilishi, doira usuliga o'xshashligini bilib olish qiyin emas. Shashmaqom 250 ga yaqin cholg'u va ashula yo'llarini o'z ichiga oladi. Ular

asosida yaratilgan yuzlab xalq kuy va ashula namunalari, surnay yo'llari hisobga olinsa, maqomlarning xalq musiqasida tutgan mavqeyining naqadar keng ekanini anglash mumkin.

Musiqa maktabini bitirib kelgan aksariyat o'quvchilarning ovozi pardani aniq ololmaydi, ya'ni "ton"da turmaydi. Ko'pincha maktab tanlovlarida o'rin olaylik, deb bolalarga juda mashhur bo'lgan maqomlardan bir yarim, hattoki ba'zan ikki oktavali, yuqori avjlarga ega bo'lgan qo'shiqlarni aytirishadi. Avjlar chinqiriqqa aylanib ketadi.

Axir bu bolalar norasida, ya'ni, hali voyaga yetmagan nihollar-ku. Bir martalik obro' deb, millatimizning noyob iqtidorli bolalarining ovozi bir umrga majruh qilib qo'yamaymizmi?

Muammolarning eng og'iri — bolalarga o'rgatilayotgan qo'shiqlar matni. Hozir ijro etiladigan "Maqom" va "Mumtoz qo'shiqlar"imiz asosan klassik shoirlarimiz ijodidan bo'lgan g'alal va she'rlardan tuzilgan. Ularni hatto biz, yoshi kattalar ham, to'g'risini aytish kerak, ko'proq lug'atlar orqali ba'zi so'zlarning ma'nosini tushunishga harakat qilib, o'rganamiz.

Ba'zi o'qituvchilar o'quvchi bolalarning yoshini, holatini inobatga olmay, xalq orasida mashhur bo'lib ketgan qo'shiqlarni o'rgatib, obro' olmoqchi bo'lishadi. Yaqinda bir tanlovda musiqa maktabining uchinchi sinfida o'qiydigan qiz bola shoir Noqisning "Dog'man" g'azali bilan aytiladigan qo'shiq ijro etdi. Shu qo'shiqni tayyorlab, o'rgatgan o'qituvchiga bir savolim bor:

— Siz shu qo'shiq muallifini yaxshi bilasizmi, she'r nima sababdan yozilgani bilan qiziqqanmisiz? Vaholanki, "Dog'man" g'azalini yozgan shoir Noqis Kattaqo'rg'on shahrida yashab, ijod etgan. Nogiron bo'lgan, ikki oyog'idan ayrilgan. Men u kishining suratlarini ko'rganman, podshipniklarga o'rnatilgan taxtachada ikki andavachaga o'xshagan taxtachalar bilan surilib yurar ekan. "Dog'man" g'azali uning yetolmagan orzulari, cheksiz hasrat va armonlari emasmi?

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Nima uchun bolalar ruhiyatiga aynan kattalar uchun yozilgan, dod-faryodlardan iborat yoki ishqiy matnlarni singdirishimiz kerak? Bolalarga xos va mos "Maqom" va "Mumtoz qo'shiqlar"ni yaratish payti kelmadimikan?

Yaqinda bir telemuloqotda "Milliy tiklanish" partiyasi rahbari Alisher Qodirov ustoz-sho-

gird masalasida juda kerakli gapni aytib o'tdi: "Jahon musiqasini notaga olish mumkin, ammo maqom holati va harakatini notaga olib bo'lmaydi, — dedi u. — Bu aynan ustoz-shogird an'anasi orqali bir-biriga o'tadi".

Bu haqiqatan ham bor gap. Maqom asarlarini o'zgartirish mumkin emas. "Shashmaqom" buyuk Turonzamin xalqlarining hayotini, g'am-u shodliklari, orzu armonlari, muhabbat iztiroblari asosida yaralgan buyuk ijod namunasidir. Asrlar osha ularni ijro etib kelgan ustoz hofizlar mukammal va o'ta sayqallangan durdonalarga aylantirishgan.

Maqomni ardoqlang, seving, undan ilhom olib, yangi-yangi asarlar yaratib. Yangi manzur nafaslarini topib, ijro ettirib. Xalqimizning ardoqli hofizlari Tavakkal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, To'lqin Sobirovlar "Shashmaqom" asarlarini, mumtoz qo'shiqlarni yangi nafasda, yuksak darajalarda ijro etishdi, lekin o'zgartirish kiritishmadi. Ulardan ruhlanib, yangi-yangi ajoyib qo'shiqlar yaratishdi.

Maqom, uning falsafiy mazmuni va teran ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Bu musiqiy merosimiz, bebaho madaniy mulkimizni asrab-avaylab, yanada takomillashgan holda keyingi avlodlarga yetkazish borasida keng qamrovi ishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri — bolalar maqom ijrosiga alohida ahamiyat berilayotgani diqqatga sazovor. Bu, o'z navbatida, maqom durdonalariga to'g'ri keladigan bolalarga xos va mos matnlar yaratishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan bolalar mumtoz san'atini rivojlantirishda quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerak deb o'ylayman:

— bolalar maqom yo'nalishlariga mos keladigan she'rlar matni bo'yicha ijodkorlar o'rtasida tanlov tashkil etish va ularni notalashtrish;

— televideniye va boshqa OAVda bolalarga "Shashmaqom"ni o'rgatib bo'yicha har xil ko'rsatuvlar, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;

— bolalar maqomiga maqomshunos olimlarning munosabati aks etgan ijodiy uchrashuvlar uyushtirish.

Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablari uchun "Shashmaqom"ning yaratilish tarixi, uning mazmun-mohiyatini aks ettirgan kitoblar haqida axborotnomalar, o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilishi va joylarga yetkazilishi kerak. Ana shundagina musiqiy merosimiz istiqbolini yanada porloq bo'ladi.

Qahramon SAIDOV,
san'atshunos

Tinimsiz o'qib-o'rgangan mutaxassis

ta'limni yangi bosqichga ko'tara oladi, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi

Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni so'nggi vaqtlarda pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan 1 ta xorijiy va 4 ta mahalliy oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga qo'yilganligida ham ko'rish mumkin.



Sohada ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash zarurligi asosiy kun tartibiga chiqdi, — deydi **Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori Mamirjon ATAJOV**. — Haqiqatan, pedagogik ta'lim sohasini zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tasavvur etish amri mahol.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori soha taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Sifat jihatdan yangi bosqich

Prezidentning Parlamentga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar va ushbu Qarordan kelib chiqib, bizning oliy dargohimiz professor o'qituvchilaridan iborat katta jamoamiz ham o'z oldiga qator vazifalarni belgilab oldi. Buning uchun tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlashni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilishni boshlab yubordik.

Buning uchun oliy ta'lim tizimi talab va me'yorlariga javob beradigan iqtidorli



yoshlarni magistratura bosqichi bitiruvchilari ichidan saralayamiz. O'z navbatida, ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirishga e'tibor qarataymiz. Chunki Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi".

Ikki tomonlama muhim jarayon

Pedagogika oliy o'quv yurtini bitirayotgan talabalarning salohiyatini sohada kadrlar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Buning



ing uchun albatta mavjud davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish hamda fan dasturlarini tayyorlashda bevosita ish beruvchilar ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayni keza Qo'qon davlat pedagogika instituti jamoasi pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirishga ham hissa qo'shmoqda. O'z navbatida, bu innovatsion o'quv-me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish borasida: ishlarni tezlashtirayapti.

Buning uchun ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga e'tibor qaratilmoqda. Bunda avvalo pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o'rganib borilmoqda. Joylardagi kadrlar yetishmovchiligi o'rganilib, chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat grantlari asosidagi maqsadli kvotalar ajratish hamda yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish bo'yicha takliflar tayyorlanmoqda.

Bunday ikki tomon uchun ham muhim bo'lgan hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirib borish borasida birmuncha ishlar qilindi. Natijada institutda oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash peshma-pesh amalga oshirilmoqda. Pirovardida, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratilmoqda.

Malakali mutaxassis yetuk kadr tayyorlaydi

Joriy o'quv yilidan boshlab pedagogik sohadagi oltita bakalavriat

ta'lim yo'nalishlarida o'qish muddati uch yil etib belgilandi. Qo'qon davlat pedagogika institutida ham musiqa ta'limi, jismoniy madaniyat, texnologik ta'lim, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishlarida talabalarning o'qish muddati uch yilni tashkil etishi ko'zda tutildi.

Keyingi o'quv yillaridan matematika va informatika hamda geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishlariga qo'shimcha beriladi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) hamda psixologiya (amaliy psixologiya) ta'lim yo'nalishlari yangidan tashkil etiladi.

— Bu ham ushbu ta'lim yo'nalishida dars beruvchi professor-o'qituvchilardan qo'shimcha mahorat, bilim, ko'nikma, malaka talab etadi, — deydi M. Atajonov. — Biz bu jarayonda mavjud imkoniyatlarimizdan foydalangan holda professor-o'qituvchilarimizni malakalarini oshirishimiz, qolaversa, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'proq jalb etishimiz, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan malakali mutaxassislarni ko'proq jalb etishimiz kerak bo'ladi. Masalan, o'tgan yilning o'zida nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan jami 22 nafar professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etildi.

Yetuk kadr esa, farzandlar kelajagi

Bundan tashqari institutda ayni keza qayta tayyorlash va umumta'lim maktablari o'quvchilarga dars berayotgan pedagog kadrlar malakasini oshirish markazini tashkil etish rejalashtirilgan. Buning uchun hozirdanoq institutda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha rejalar ishlab chiqildi. Buning uchun avvalo pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish borasida mediamarkaz tashkil etish, yangi laboratoriya jihozlarini sotib olish, qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlarni tayyorlash salmog'ini oshirish maqsadida ishlar boshlab yuborildi.

Olib borilayotgan ishlar natijasi o'laroq, o'z-o'zidan ishga qabul qilish jarayoni takomillashtiriladi. Ishga qabul qilish mexanizmlari qayta ko'rib chiqiladi. O'z navbatida, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar qisqartirilib, ularning o'rmini zamon talablari asosidagi mutaxassislik fanlari egallaydi.

— Eng muhimi, oliygohimizda talablik baxtiga musharraf bo'lgan har bir yigit-qizning iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratib berish borasida tashkiliy ishlar qilinmoqda, — deydi institut rektori Mamirjon Atajonov so'zini davom ettirib. — Buning uchun hozirgi kunda talabalarimizning raqamli texnologiyalar bo'yicha startap loyihalarida ishtiroki-



ni ta'minlash bo'yicha amaliy ishlarni boshlab yubordik. Chunki ilg'or intilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlasak, ularning orasidan Beruniylar, Forobiylar, Xorazmiylar, Farg'oniylar yetishib chiqadi-da!

Institut nufuzi oshadi

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalaridan 10 tasi o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tdi. Ana shu bayroqkor oliy ta'lim muassasalari qatori Qo'qon davlat pedagogika instituti ham o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tishi borasida tashkiliy ishlarni amalga oshirish nihoyasiga yetay deb qoldi.

Bugungi kunda institutda asosiy shtat-

da jami 435 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib borayapti. Shundan ilmiy darajalilar 115 nafarni tashkil etadi (ya'ni ilmiy salohiyat 26,4 foiz).

Institut ilmiy salohiyatini belgilovchi xodimlardan o'tgan yilda dissertatsiya himoya qilganlar va ilmiy unvon olganlar 13 nafar. Joriy yilning shu kuniga qadar 4 nafar professor-o'qituvchi pedagogika fanida yangilik yaratdi — ilmiy ishini himoya qildi va ilmiy unvonga ega bo'ldi.

Yurtimizdagi pandemik vaziyat sharoitida ham bir qator ana shunday fidoiy, zahmatkash, o'z ustida tinmay izlanayotgan o'qituvchilar ilmiy ishlarini himoya qilish arafasida turibdi. Institut mamlakatimizda va xalqaro nufuzini oshirish hamda raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida bir qator vazifalarni o'z oldiga qo'ygan. Masalan, fan doktori (DSc) va fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki professor unvoniga ega professor-o'qituvchilar ulushi oshirib boriladi. Buning uchun institutning ilmiy sohadagi istiqbol rejasini qat'iy bajarish orqali har bir kalendar yilida ilmiy tadqiqot ishini himoya qilgan professor-o'qituvchilar soniga muntazam e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ular tomonidan mamlakatimizning nufuzli nashrlaridan bo'lgan "Ma'rifat" va "Uchitel



sus ta'lim vazirligi muvofiqlashtiruvchi Kengashining guvohnomasini olgan o'quv qo'llanmalar va darsliklarni chop ettirish bo'yicha kafedralar tomonidan tuzilgan rejaning bajarilishi ta'minlanadi.

Intelktual mulk uchun olingan himoya hujjatlari (patentlar), axborot-kommunikat-

Xalqaro konferensiyalar yoki seminarlarda ishtirok etgan professor-o'qituvchilar va talabalar sonini oshirish va buni tasdiqlovchi diplom va boshqa hujjatlarni qo'lga kiritish (Institut rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan) maqsadga muvofiq. Buning uchun xorijiy tilda o'qitiladigan o'quv kurs(fan)lari sonini ko'paytirish, xorijiy tilda dars beradigan o'qituvchilarning tili bilish darajasini belgilovchi tegishli sertifikatlarni qo'lga kiritishini ta'minlash (har bir kafedradan kamida 1 nafardan o'qituvchi) bundan keyingi mo'ljalni belgilaydi.

Xalqaro va Respublika olimpiadalari va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritgan va mukofot(diplom)larga sazovor bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sovrindorlari bo'lgan talabalar sonini ko'paytirish (har bir yo'nalish chiqaruvchi kafedradan 1 tadan xalqaro yoki 1 tadan respublika darajasidagi sovrindor), bularning barchasi institut nufuzini oshirib borish sari muhim qadam hisoblanadi.

Rostga aylangan xayolot

Joriy yilning "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinganida ham sohani taraqqiy ettirishga ishora bor. Chunki bugungi kunda mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti, dunyo maydonidagi raqobatbardoshligini oshirish, jamiyat farovonligini ta'minlash, har bir inson salohiyatini yuzaga chiqarishda aynan pedagoglar oldingi safda bo'ladi.

Bugungi mutaxassis tinimsiz o'qib-o'rganib borishi, ta'limni yangi bosqichga ko'tarishi uchun eng avvalo pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish zarur. Bugun raqamli platformalar qamrab olgan jabhada yashayapti. Ijtimoiy tarmoqlar axborotlari ta'siri ostida qoldi. Qisqasi, kechagina Jyul Vern, Ayzek Azimov kabi fantast yozuvchilarning asarlarini o'qigan bolalar bugun texnik taraqqiyotdan ajablanmay qo'yd. Boisi, asarlardagi aksariyat xayolot mahsullari haqiqatga aylanib ulgurdi. Bugungi kun pedagogi mana shunday sharoitda ishlashi, bolalarga dars berishi kerak.

Qo'qon davlat pedagogika instituti jamoasi ta'lim tizimiga shunday zamonaviy fikrlaydigan yetuk kadrlarni yetkazib berish yo'lida mehnat qilmoqda.

Ma'murjon QIYOMOV



Xalqaro hamkorlik

Xalqaro hamkorlik ta'lim sifatiga xizmat qiladi

Hozirgi dunyo oliy ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yimoqda, uni mehnat bozorida talab etilgan raqobatbardosh diplomli mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirimoqda. Bunda yuqori malakali kadrlar tayyorlash ko'p bosqichli tizimi, uzluksiz ta'limni rivojlantirishga nisbatan innovatsion yondashuv, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim sifati xalqaro standartlariga o'tish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Ta'limni modernizatsiya va isloh qilish jarayonlari oliy ta'lim tizimida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bu yerda dars berishning yangi texnologiyalari ta'lim sifati oshirish maqsadida doimiy ravishda joriy etiladi. O'z-o'zidan ravshanlik, ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zaruriy omili hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik oliy o'quv yurtlarining o'zaro naf keltiradigan natijalarga birgalikda erishish uchun o'zaro aloqa qilish shakli va vositasi hisoblanadi. U birgalikdagi faoliyat sohasiga qarab turli-tuman tashkiliy shakllarga ham ega. Talabalarga ta'lim berishning yanada ilg'or usullari va tajribasini topish yo'lidagi izlanishlar mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarini amaliy aloqalar o'rnatishga va o'zlariga berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanishga rag'batlantiradi.

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarining chet el ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligi, unga keng

ko'lami va o'zaro manfaatli: tus berishi oliy o'quv yurtining salohiyati, imkoniyatlari va reytingini oshiradi. Xalqaro hamkorlikdan olinadigan samara ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasidagi xorijiy tajribani o'zlashtirishda ham namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, xalqaro hamkorlikka intilish maqsadi jahon ta'lim va ilmiy makoniga yanada faol qo'shilishdan iborat bo'lgan zamonaviy oliy o'quv yurti faoliyatining uzviy qismi hisoblanadi. Mazkur ish yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlik dasturlari, ta'lim sohasida xalqaro loyihalarni amalga oshirish, ilmiy-amaliy seminar va konferentsiyalar tashkil etish, o'qituvchi va talabalar ikki tomonlama tajriba almashuvi doirasida amalga oshirilmoqda.

Xorijiy yuridik universitetlar va ularning xalqaro assotsiatsiyalari bilan samarali hamkorlik oliy yuridik ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, joriy yilning 29-aprel kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan Toshkent davlat yuridik universiteti zimmasiga milliy huquqiy ta'lim va fanni xalqaro darajaga olib chiqish va ularning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar yuklatildi.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida TDYU Universitetlarning xalqaro assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU), Yuridik maktablar xalqaro assotsiatsiyasi (International Association of Law Schools – IALS) va Yuridik maktablar Yevropa assotsiatsiyasi (European Law Faculties Association – ELFA)ning to'liq a'zosi aylandi.

Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi 130 mamlakatdagi 650 dan ortiq nufuzli oliy ta'lim muassasalarini birlashtiradi. UNESCOning rasmiy hamkori sifatida ushbu assotsiatsiya a'zolar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va ta'lim jarayonida yangi bilim va yangiliklarni qo'llashga alohida e'tibor qaratadi.

Yuridik maktablar xalqaro assotsiatsiyasi 55 mamlakatdan 155 dan ortiq huquq universitetlari va huquq maktablarini birlashtirgan tashkilotdir. Assotsiatsiyaning asosiy vazifasi huquq maktablari faoliyatini takomillashtirish va dunyoda huquqiy ta'lim tizimini rivojlantirishdan iborat. Tashkilot butun dunyo bo'ylab 4500 dan ortiq o'qituvchilarning manfaatlarini ifodalaydi.

IALS a'zolarining uchrashuvlari jahon miqyosida huquqiy ta'lim olish uchun maqsad va strategiyalarni belgilaydi. Global forum doirasida huquq maktablari va fakultetlari rahbarlari o'zaro fikr va tajriba almashadi. Yuridik maktablar Yevropa assotsiatsiyasi Yevropada huquqiy ta'lim sifati oshirish maqsadida muhokamalar o'tkazish va tajriba almashish uchun platforma sifatida yaratilgan 150 dan ortiq a'zolaridan iborat nufuzli xalqaro tashkilotdir. Assotsiatsiyaning asosiy faoliyati huquqiy ta'limni isloh qilish, yangi standartlarni ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalar, sud va huquqni muhofaza qilish organlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish jarayonini muvofiqlashtirishdan iborat.

Ushbu assotsiatsiyalarga qo'shilish Toshkent davlat yuridik universitetiga huquqiy ta'lim va ilm-fanni xalqaro darajaga olib chiqish, eng yaxshi jahon amaliyotlarini qo'llash, Yevropa kredit uzatish va jamg'arish tizimini samarali amalga oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni faollashtirish va xalqaro reyting bo'yicha dunyoning eng yaxshi universitetlari ro'yxatiga kirish imkonini beradi.

Omonulla MUHAMMADJONOV,
yuridik fanlari doktori
Behzod XUDOYBERGENOV,
TDYU o'qituvchisi

Munosabat

Sifatli ta'lim – milliy yuksalishning muhim omili

Ta'lim jarayoni shaxsning kamolotini ta'lim va tarbiya orqali shakllantirishni nazarda tutuvchi muhim jarayon sanaladi. Aynan ta'lim orqali davlat rivojlanib, jamiyat yuksaladi. Ya'ni, jamiyat a'zolarining ma'rifiylashuvi orqali mamlakatda adolat qaror topib, jamiyatda sog'lom muhit shakllanadi, odamlarda mas'uliyat hissi ortadi. Ta'lim jarayoni mohiyatan yoshlarni bilim va tafakkur, komillik sari yo'naltirishi bois ham asosiy ijtimoiy talab yoki ehtiyoj hisoblanadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratilgan boshladi. Asosiy, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchining jamiyatdagi o'rni, obro'si, nufuzi va mavqeyini ko'tarish hamda ta'lim sifati oshirishni nazarda tutuvchi qulay tashkiliy-huquqiy muhit yaratildi. Ta'lim sohasini turli sabablarga ko'ra tashlab ketgan mutaxassislar bugun qaytib kelib o'z faoliyatini davom ettirishmoqda. Shaxsning konstitutsiyaviy ta'lim olish huquqini amalda ta'minlash uchun katta mablag'lar evaziga tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Lekin milliy ta'lim jarayonida natija qanday? Taassufki, natija hozircha kutilganidek emas. Bu ayniqsa, koronavirus pandemiyasidek yurt boshiga ish tushganda yaqqol sezildi. Uzluksiz ta'lim jarayonida onlayn tarzda ishlash tizimiga o'tilganda tizimdagi kamchilik va nuqsonlar

o'zini to'liq ko'rsatdi. Birinchidan, ta'lim jarayonida ko'pchilik eskicha, an'anaviy ish uslubiga tayanib qolgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdagi bilim va ko'nikmaning yetarli emasligi ko'rindi. Ikkinchidan, ta'lim jarayonidagi mutaxassislarining o'z sohasi bo'yicha tayyorgarligi ham hammaqadrga ekanligi ma'lum bo'ldi. Uchinchidan, oddiy ijtimoiy tarmoqlar orqali bo'lsa ham ta'lim iste'molchilari bilan aloqa bog'lashni eplay olmagani ayrim talabalar ham hammaqadrga ekanligi ma'lum bo'ldi. Ikkinchidan, ta'lim jarayonidagi ba'zi nojoiz holatlarga duch kelganman. Ayrim o'z obro'si, pedagogik tajribasi va ta'lim muassasasida o'rni ega o'qituvchilar, o'quvchilar bilan munosabatini ularning o'ta-onasining maqomi yoki shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan kelib chiqib amalga oshirishadi...

Diqqatimizni yana Abdulla Avloniy fikrlariga qaratamiz. U tarbiya xususiy ish emas, u milliy

aytgan fikrlari achchiq bo'lsa-da, tan olinishi kerak bo'lgan haqiqat. Agar biz istiqbolli kelajagimiz kafolati bo'lmish ta'lim sifatini ta'minlashni uddalay olmasak, farovon hayotni qurolmaymiz. Chunki katta xarajatlarga evaziga barpo etilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi turli zamonaviy muassasalar sifat tamoyili asosiga tay-anmasa uning kelajagi bo'lmaydi. Buyuk ma'rifatparvar, mashhur pedagog Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli asarida "Ta'lim-tarbiya berish muallimlarning vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadir", deb yozgan edi. Garchi yuz yildan oshiq vaqt o'tsa-da, ushbu fikrlar xuddi bugun uchun aytilgandek. Milliy ta'lim-tarbiyaning asl mohiyatini, konsepsiyasini ifodalab turibdi.

Xizmat faoliyatim davomida talabalar amaliyoti, o'quv-metodik hamkorlik, ilmiy tajriba uchastkasi sifatida ayrim umumta'lim maktablarida tez-tez bo'lish natijasida pedagog sifatida ta'lim jarayonidagi ba'zi nojoiz holatlarga duch kelganman. Ayrim o'z obro'si, pedagogik tajribasi va ta'lim muassasasida o'rni ega o'qituvchilar, o'quvchilar bilan munosabatini ularning o'ta-onasining maqomi yoki shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan kelib chiqib amalga oshirishadi...

Diqqatimizni yana Abdulla Avloniy fikrlariga qaratamiz. U tarbiya xususiy ish emas, u milliy

ijtimoiy ishdur. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushundirdi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U, birinchi navbatda, bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi. Demak, bolada ixlos tuyg'usini to'g'ri shakllantirish lozim. Ya'ni, ixlos fikr va amalning uyg'unligi bo'lib, u barcha yomon illatlarga qarshi turuvchi tushuncha ekanligini murg'ak qalbiga mohiyatan to'g'ri singdirish kerak.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining minbaridan turib: "Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir" deya ta'kidlaganda milliy ta'lim tizimimiz maqsadimi xalqaro hamjamiyatga bayon etgandi. Demak, bilimli, tafakkuri keng va najib axloqli komil shaxslarni tarbiyalash milliy ta'lim tizimining bosh maqsadidir.

Abdulla Avloniy "Dars ila tarbiya orasida biroq farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga bog'langan jon ila tan kabidur" deya e'tirof etadi. Ta'lim tizimining sifati ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini talab qilar ekan. Shu

o'rinda soha mutaxassislari, avvalambor, bu borada o'z faoliyatlarida ta'limdan tarbiyaga yoki aksincha doirasidan o'tishganda og'rinmasliklari kerak. Chunki uzluksiz ta'lim va tarbiya orqali tarbiyachi yoki muallim turli vositalar bilan shaxsni tarbiyalab, uning tafakkurini kerakli bilim bilan boyitib, qalbini yuksaltirib individdan shaxsga aylantirishga erishadi. Go'yoki ta'lim va tarbiya insonning go'daklik, bolalik, balog'at, o'spirinlik va yoshlik davrlarida ongi va fikrini charxlab, bilim va ko'nikmalarini oshirib, tafakkurini shakllantirib, sozlangan, qo'l tegsa jaranglab ketadigan musiqaga asbobidagi holga keltirar ekan.

Nafaqat shaklan, balki mazmun va mohiyatan ham yangilanib taraqqiy etayotgan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoni o'zining sifat bosqichiga kelganini anglashimiz va tan olishimiz lozim. Yurtimizda adolat, tartib, osoyishtalik hamda milliy yuksalishga erishish uchun ham ta'limning sifati ko'tarishimiz zarur. Bu borada mutaxassislar va jamiyatimizning har bir a'zosi fikriy yangilanishlar yuz berishga erishish ham muhim masala. Ana shunda o'qituvchi, ustoz, murabbiy izzat-ehtiromda bo'ladi, milliy ruh, milliy g'urur shakllanib, milliy yuksalish sodir bo'ladi.

Aziza MUXSIYOVA,
Nizomiy nomidagi
TDPU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Mutolaa hayratlari

“Kandata ipi” yoxud Akutagavaning ilk kashfiyoti (to'rtinchi maqola)

1

Keling, eslab ko'raylik, adabiyotda bu ibora qachon paydo bo'lgandi? Albat, qisqa hayoti davomida nafaqat yapon nasrida, balki jahoniy adabiyot bo'stonida o'ziga xos portlash sodir etgan buyuk hikoyanavis Ryunoske Akutagava ijodi muxlislari uchun mazkur ibora sirini anglab yetish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Ha, ha, esladingsiz, bu yerda uning qalamiga mansub “O'rgimchak to'ri” hikoyasi qahramoni Kandata ongida shak-shubhasiz halokat jaridan qutulib qolish ilinjini uyg'otgan o'rgimchak to'rtinchi kumushdek tovlanib turuvchi ip nazarda tushilyapti. Garchi bu iboradan Siz birmuncha xabardor bo'lsangiz ham, unga ilk daf'a duch kelayotgan o'quvchi uchun mazkur hikoyaning muhtasar bayoni bilan galdagi mulohazalarimizni boshlasak...

Kunlardan bir kun Buddha yolg'iz o'zi jannat hovuzi atrofida sayr qilib yurardi. Nilufar gullari hovuzi shunchalik chuqur ediki, u do'zax atalmish joyning tub-tubigacha yetib borardi. Jahannam qa'rida osiy bandalar bijg'ib yotardi. Nogoh Buddaning nigohi Kandata ismi bir osiyga tushib qoladi. Kandata uchiga chiqqan qaroqchi bo'lib, umri davomida ko'p odamlarga ozori tekkan, o'ldirgan, kemalarni rahmsizlarcha talagan edi. Shunday bo'lsa-da, u hayotida birgina marta yaxshilik qilgan: o'rmonda ko'zi mittigina o'rgimchakka tushib, boshda oyog'i bilan uni bosib yanchishga shaylanadi, keyin esa shahidan qaytib, o'rgimchakni tirik qoldiradi. Buddha qaroqchini shu yaxshiligi uchun do'zax azoblaridan xalos etishga qaror qiladi va nilufar guli ustiga jannat o'rgimchagi to'rtinchi kumush to'rdan nozikkina rishtani olib, svuga botiradi. Rishta ohista tebranganicha jahannam qa'riga tusha boshlaydi. Do'zax sinovlarida azob chekayotgan Kandata boshi uzra tebranib turgan ipni ko'rib, sevinadi. Axir u singari tajribali qaroqchi uchun arqonga osilib tepaga chiqish qiyinchilik tug'dirmaydi-da. Bir zumda unga qattiq azob bergan Xun daryosi zulmat ichra qoladi, hatto Igna tog' ham jahannam qa'rida xanjar tishlarini yaraqlatganchoy oyoqlari ostida turardi.

Kandata sevinganidan so'nggi yillarda ilk marotaba baralla qichqirib yubordi:

— Qutuldim! Qutuldim!

Uning jahannam qa'ridan chiqib olishiga sanoqli masofa qolgandi, banoqoh o'zidek boshqa gunohkorlar ham ortidan chumoliday turnaqator bo'lib, ipga osilib chiqayotganini ko'rib qolgan qaroqchi ipning uzilib ketishidan qo'rqib, ovozi boricha bo'kiradi:

— Hey, do'zaxiyalar! Bu mening ipim! Unga chiqqani senlarga kim ruxsat berdi? Qani chaqqon-chaqqon tushlaring pasta!

Shu payt kumushrang rishta Kandata ushlab turgan joyidan chirs uzilib, u hatto “oh” deyishga ulgurmay, chirpirak bo'lib aylanganicha zulmat qa'riga qulaydi. Budda nilufar hovuz qirg'og'ida hammasini ko'rib turgandi. U g'amgin qiyofada o'rmondan turib, sayrni davom ettiradi. Kandataning yuragida zig'ircha rahmdillik yo'q edi. Do'zaxdan yakkash o'zi qutulmoqchi bo'ldi va qilmishiga yarasha jazolanib, qaytadan jahannam girdobiga irg'itildi...

2

Bo'lajak yozuvchi Tokioda 1892-yil 1-marti tongotarida, qadimiy yapon vaqt hisobi bo'yicha Ajdar oyining Ajdar kuni Ajdar soatida tavallud topdi. Shu bois unga Ryunoske (“ryu” iyeroglifi “ajdar” ma'nosini beradi) deb nom qo'yishdi. U to'qqiz oylik chaqaloq payti onasi aqldan ozgani uchun, onasining Tokio perfektu qurilish bo'limi boshlig'i bo'lib ishlaydigan befarzand katta akasi o'g'il qilib oladi. Shu tariqa Ryunoske Ninxara nasabini yo'qotib, Akutagava nasabini oladi. Yoshligidan adabiyotga ixlos qo'yan Ryunoske 23 yoshga kirganda ilk ikki hikoyasini nashr ettiradi. Ushbu ijod namunalari bilan o'z davrining buyuk yozuvchisi sanalgan Natseme Sosekining (adibning XX asr yapon yoshlari uchun dasturilamal bo'lgan “Qalb” romani Nodira Aminova tarjimasida “Jahon adabiyoti” jurnalining 2013-yil 5–7-sonlarida e'lon qilingan) e'tiboriga tushadi. Bo'lajak yozuvchi tarbiya topgan tog'asining xonadonida yapon va xitoy qadimiy bitiklari, mumtoz musavvirlar chizgan suratlar ko'p edi. Akutagava yoshligidan shu xazina olamiga mukkasidan ketadi, tez-tez bo'lib turadigan adabiy bahslarning nafaqat kuzatuvchisi, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Yapon nasri VIII–XI asrlarda “monogatari”lar, she'riy bayozlar so'zboshisi “xasiganlar” shaklida yaratilgan. “Monogatari” yapon tilidan tarjima qilinganida “qissa”, “nimadir haqda gapirmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Kunchiqar mamlakat tarixi Nara (VIII asr), Xeyan (IX–XII asrlar), Kamakura (XIII–XIV asrlar), Muramati (XV–XVI asrlar), Edo davrlariga (XVII–XIX asrlar) bo'linadi. “Monogatari”lar va kundaliklar yozish Xeyon davrida ayniqsa o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Yapon mumtoz adabiyotining eng yirik, muhtasham obidasi sanalgan, o'n birinchi asr boshlarida taxallusi Murasaki bo'lgan adiba tomonidan yaratilgan “Gendzi monogatari” (“Gendzi haqida qissa”) romanida qishloqi o'g'ri hayotining bir lahzasini tasvirlovchi qisqagina hikoya keltiriladi. Tirik qolish ilinjida muhtasham poytaxtga kelgan o'g'ri o'zi istagan boylikka erisholma-

gach Rasyomon darvozasi minorasida qashshoq kampirni tunaydi. Boshlovchi adib Ryunoske Akutagava shu rivoyat asosida biz yuqorida ta'kidlagandek buyuk yozuvchi N.Soseki e'tiboriga tushgan ikki hikoyadan biri — “Rasyomon darvozasi”ni yozadi. Yozuvchi mahorati va uning mazkur hikoyasi bilan “To'qayda” novellasi sintezini badiiy filmga aylantirgan mashhur kinorejissor Akira Kurosava fantaziyasi bugunga kelib “Rasyomon” atamasining dunyoga dong taratishiga yo'l ochib berdi.

3

“Gendzi monogatari”dagi rivoyatdan farqli o'laroq Akutagava qahramoni yovuz qaroqchi emas, xo'jayini tomonidan ishdan bo'shatilib, bir tishlam non topish ilinjini ham yo'qotgan oddiy xizmatkor. U tungi payt yupungina ust-boshda bir vaqtlar dong taratgan mashhur Rasyomon darvozasi tagida yomg'ir tinishini kutib o'tiribdi. Darvoza yillar davomida qarovsiz qoldirilib, xaroba holga tushgan, o'g'ri-kazzoblar oshyon qurgan bu go'sha odamlar egasiz mayitlarni tashlab ketadigan makonga aylangan. Vaqt, borliq va makon tasviri muallif tomonidan shu darajada quyuqlashtiriladiki, har qanday kitobxon mayitlar qalashib yotgan, o'laksaxo'r quzg'unlar charx urib yurgan maskan manzarasini bemalol tasavvur etib, ko'ngli ozganidan ijirg'andadi. Yapon adabiyotshunosi Syoyo Subouti 1885-yilda e'lon qilingan “Roman mag'zi” essesinde shunday yozadi: “Bosh mezon — inson botiniy dunyosini yorita bilish, axloq, urf-odatlar keyingi mezon... kechinmalar — asar mag'zidir”. Akutagava “Rasyomon” ibtidosida har qanday yovuzlik ko'rinishlaridan jirkandigan, jinoyat yo'lga kirishdan ko'ra ochlik xurujidan o'lishni afzal ko'radigan kishi obrazini chiza boshlaydi. Hikoya qahramonining cho'ntak kavlashga hojati yo'q, negaki u bo'm-bo'sh ekani ayon, agar u yashab qolishni istasa, o'g'irlikka qo'l urishi lozim, ammo birinchidan bu yerda tunaydigan hech narsa yo'q, ikkinchidan o'g'irlik qilishni uning ozurda qalbi rad etardi. Yupun kiyingan kimsa hechqursana tana-tanasidan to'ytib borayotgan sovuqdan biqinib, o'g'ri uxlash ilinjida begona ko'zlardan pana joy qidiradi, nogoh uning nigohini minoraga olib chiquvchi kengina, qizil rangda laktangan zinapoya tortadi. U yerda o'liklar qalashib yotganiga imoni komil bo'lsa-da, yuqoriga ko'tarilgan boshlaydi. Ammo ikki-uch zinadan yuqorilgach, u yerda chiroq yoqqan bir odam yurganini ko'rib qoladi. Shunday yomg'ir tunda Rasyomon darvozasi chiroq yonyaptimi, bu bejiz emas. Mayitlarning qo'lansa hididan yuragi ag'darilib borayotgan xizmatkor xinoki daraxti rangidagi kimono kiygan kam-

pir qilayotgan ishni ko'rib ham hayratga tushadi, ham g'azabi kelganidan chopqillab borib, uning boshi uzra qilichini o'ynatadi, axir Rasyomon darvozasi minorasida murdalarning sochlarini yulishdan ham tubanroq yovuzlik bo'lishi mumkinmi? Ma'lum bo'lishicha, kampir murdalarning sochini ulama soch yasab sotish, shu yo'l bilan ochlikdan qutulib qolish uchun yulayotgan ekan.

— O'likning sochlarini yulish yaramas ish, rostdanam, — deya vaqillaydi kampir o'z xatti-harakatlarini oqlash niyatida. — Ammo bu yerda yotgan o'liklarning hammasi shunga loyiq. Masalan, manavi, men sochini yulgan xotin, ilonlarni to'rtga bo'lib, tilimlab, quritardi-da, keyin saroy soqchilariga baliq o'rmda sotardi. Agar vabo tegib o'lmaganida hozir ham shu ishni qo'ymagan bo'lardi. Tirikchiligi shundan edi-da! Odamlar ham u sotadigan baliqlarni mazali deyishardi. Soqchilar bo'lsa, uni doim gazak qilish uchun sotib olishardi. Masalan, men uni yomon ish qilgan deb bilmayman. Shunaga qilmasa, ochidan o'lardi-da. Demak, u muhtojlikdan qilgan bu ishni. Shuning uchun men ham o'zimni yaramaslik qilyapman, deb bilmayman. Shuni qilmasam ochdan o'laman. Demak, muhtojlikdan hammasi. Bu xotin ham muhtojlik nimaligini yaxshi bilgan, meni tushungan bo'lardi, ayblamasdi balki”.

Maqsad qilmishni oqlaydi, kamping poyintar-soyintar gaplaridan shu natijaga kelgan xizmatkor qilichini qiniga solib, dastagidan tutganicha uning hikoyasini sovuqqina tinglaydi. Zotan kampirni tinglayotib, uning ham dilida mardlik uyg'onayotgandi. Boya pastda, zinapoyada turganida yetishmayotgan mardlik. Va bu ichki emrinish zinapoyadan yugurib chiqib, kampirni ushlagandagi holatining mutlaqo aksi edi. Endi u ochdan o'lish yoki o'g'irlikni tanlash o'rtasida sira ikkilanmayotgan, natija harakatni oqlashiga butkul ishongandi. Shu ishonch qutqusida u o'g'irlikka, bosqinchilikka qo'l uradi, kamping chorpaxil jussasini yopib turgan xinoki daraxti rangidagi kimononi zo'rvonlik bilan tortib olib, uning chorpaxil jussasini shir yalang'och qoldirganicha zinadan aylanib tushib, qorong'i zulmat qa'riga singib ketadi...


4

Akutagava mazkur hikoyasida shunchaki voqeani tasvirlash bilan kifoyalaniq qolmaydi, balki real voqelik ta'sirida inson qalbi botiniy turlanishlarini o'z mualliflik obyektiga aylantiradi. Bu uning ijod yo'lidagi ilk kashfiyoti edi. Ulkan adib keyingi yaratilgan mazkur kashfiyoti yanada yuksalroq cho'qqilarga ko'taradiki, xos kitobxon beixtiyor o'zining “Ryunoske Akutagava mo'jizalari” atalmish sehrli olam fuqarosiga aylanib borayotganini tan olishdan o'zga chora topolmay qoladi. O'z uslubini yaratishda qadimiy qissalarda mavjud bo'lgan voqea va rivoyatlardan foydalanishiga kelganda esa Ryunoske Akutagava XVIII asr ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan buyuk vatandoshi Ueda Akinari yo'lidan boradi.

Pandemiyada ta'lim

("Olma daraxtining tagiga olma mevasi tushar" yoxud o'qituvchisiga o'xshar shogirdlar)

"Pandemiya-koronavirus", "Jamiyat rivoji", "Ta'lim", "Inson, tabiat, jamiyat"... Aytish mumkinki, hozirgi kunda inson nutqida eng ko'p ishlatilayotgan so'zlar bo'ldi desak adashmaymiz. Aslida insoniyat ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti mobaynida har xil sinovlarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, Yaratganning inoyati bilan, unga berilgan aql-zakovat tufayli sinovlarni chiroyli yengib o'tish bilan bir qatorda yanada kuchli, salohiyatli, bilimli, moslashuvchan ham bo'lib borgan. Insoniy boshiga kelgan har bir sinov uni yanada qudratliroq qilgan. So'zlarim isboti barcha jahada mavjud. Ayni damda o'zgacharoq tarzda fikrlaringga misol keltirmoqchiman.



Kasbiy faoliyatim mobaynida ko'p bora ustozlarga "Olma daraxti tagiga olma mevasi tushar" degan donolar, siz — va biz bu jumlaning ko'pincha ota-onaga nisbatan tushunib ishlatishga o'rgangan bo'lsak-da, aslida buni o'z kasbimizda ham qo'llasak bo'ladi. Agar siz izlanuvchan, yaratuvchan, kreativ fikrlaydigan, savodxon, barcha sohada bilimdon bo'lsangiz, ishonavering, siz daraxtsiz va sizdan albatta o'zingizga o'xshagan o'quvchilar va shogirdlar yetishib chiqadi" deyman. Bundan tashqari, "yuqumli" so'zining hatto kasbimizga aloqadorlik jihatlarini topishimiz mumkin. Qanday qilib? Javobi oddiy. Shunchaki kuzatuvchan bo'ling atrofingizdakilarga nisbatan. Agar e'tibor bersangiz, boshlang'ich ta'limda dars bergan o'qituvchining hatto ko'z ilg'amas odatlariyam o'quvchiga "yuqib" qolganini bilasiz. Yuqori sinfga o'tgach esa, majoziy ma'noda o'quvchi psixikasida endi "jang boshlanadi". Birdaniga ta'lim beruvchi ustozlari ko'payishi hisobiga ko'p holatlarda jizzakilik jihatlarini ko'zga tashlanish ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin. Bu "jang"da kim g'olib bo'lganini esa o'quvchining o'zini tutishi va harakatlaridan bilib olsa bo'ladi. O'zining nazarida aqlli, dono, mehribon, bilimli, atrofingizdakilarga hurmatiga sazovor bo'lgan ustoziga bo'lgan havas unga taqlid qilishida o'z aksini topa boshlaydi. Eng qizig'i, o'quvchining o'zini tutishi, harakatlaridan ustoz kimligini bilsa bo'ladi. Umumta'lim maktabidagi kasbiy faoliyatim davomida 5-sinflarga "Vatan tuyg'usi" fanidan

dars berish jaryonida (2009–2012-yillar) sinf va o'quvchilarning o'zini tutishi, yozuvi, bir-biriga munosabatidan boshlang'ich ta'limda o'qitgan o'qituvchilarini adashmasdan bilganman. Qanday qilib bildingiz, degan savolga javobim oddiy. Chunki boshlang'ich ta'limda dars beradigan o'qituvchilarning ish faoliyatidan xabarim bor edi. Deylik, jonkuyar ustozning o'quvchilari ham maktab jihozlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lar, husnixati go'zal bo'lgan ustozning deyarli barcha o'quvchilari bir xil chiroyli yozar, fe'li chatoqroq bo'lgan o'qituvchining o'quvchilari ham arzimagan narsaning ustida tortishib qolar, tashkilotchi ustoz o'quvchilari esa hattoki dars jarayonida ham doim yangi taklif va tashabbus bilan chiqardi. Hurmatli maqolani o'quvchilar, o'z bolaligingizga bir dam qayting-da eslang, siz ham shu bosqichni bosib o'tmadingizmi? Sizning shu darajaga erishishingizda ta'lim bergan ustozlaringizning bilimi "hosildor yer" vazifasini o'tamadimi?! Eng yomoni va eng qizig'i, o'qituvchilardagi yomon fe'l-atvor va harakatlarining ham "yuqumli" ekanidir. Demak, ISLOHOTNI O'ZIMIZDAN BOSHLAYMIZ! Ko'z oldingizga eng namunali o'qituvchi qiyofasini keltiring va shunday bo'lishga harakat qiling.

Endi asosiy masalaga kelsak. Bilasiz, dunyoda pandemiya sinovi bo'lmoqda. Ammo hayot davom etadi. Ko'z ochib yumguncha o'zimiz kutmagan va xayolimizga kelmagan holatga tushdik. Barcha sohada! Demak, avvalroq ta'kidlaganimdek, moslashuvchanlik tuyg'usi

bizni yangi sharoitlarga moslashtira bildi (tan olib aytamanki, oson kechmadi). Bir necha yillar mobaynida o'qituvchilarning axborot texnologiyalari savodxonligi borasida olib borilayotgan islohotlar majburan, birdaniga "meva berishga" majbur bo'ldi. Nega? Chunki pandemiya sharoitida ta'lim talabi shu edi! Axborot bilan ishlashda internet, kompyuter, ijtimoiy tarmoqlar o'rni yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Avvaliga "men bilmayman, qabul qilishim qiyin, darsimni shundoq ham AKTLarsiz zo'r o'ta olaman", kabi bahonalar ortiga berkingan o'qituvchiga qochgani yo'l qolmadi. Shu kasbga ehtiyoji bormi, AKTni amaliyotda qo'llashga majburlik darajasiga borgach vaziyat tubdan o'zgardi. O'z amaliyotim misolida fikrlarimni davom ettiram. Malaka oshirish kurslaridagi ta'lim jarayonida ham haqiqiy ma'noda progress kuzatildi. Ma'lumotlarimizni turfa shaklda (matn, taqdimot, videodars) tinglovchilarga taqdim etish barobarida, talablarimiz ham jarayonga moslashdi. Hattoki, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy-metodik ishlarimiz ham pandemiyaga mos-

lashib rivojlandi. "ZOOM" dasturi orqali ta'lim jarayonini olib borarkanmiz, telegram orqali ma'lumotlarimiz, topshiriqlarimiz ijrosini kuzatib, qabul qilib bordik. Hattoki, tanlovlarimiz, sinovlarimizda shu jarayonga moslashtirdik Ammo XTV "ZOOM"dagi ta'lim vaqtlari borasida ham yakuniy bir xulosani aytmog'i kerak degan fikrdaman. Chunki, 3 juftlik, bir nuqtaga tikilib ta'lim olish va berish o'qituvchilar salomatligiga albatta ta'sir qiladi. Asab toliqishi, ko'z ko'ruviga ta'sir, radiatsiya va h.k. Mb, internet tezligi sifatiga ham albatta mas'ullar e'tibor qaratisha yomon bo'lmasdi. 2020-yilning iyun oyi ona tili va adabiyot fani tinglovchilari orasida "Videoinsho" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Ko'rik-tanlovda jami 30 ishtirokchi qatnashib, ular 5 guruhga bo'lindi. O'quv-reja asnosida videoinsho haqida ma'lumotlar berilgach, tanlov e'lon qilinib, videoinsho yaratish uchun bir hafta muddat berildi. An'anaviy inshoda faqatgina yozma nutq savodxonligi baholangan bo'lsa, videoinshoda baholash mezonlarini quyidagicha ishlab chiqdim.

1	Matnning o'qilishi, og'zaki savodxonlik (ovoz, ohang, varvarizm va dealektizmlardan xoli ekanligi)	10
2	Mavzuning yoritilishi (albatta dolzarbligiga ham e'tibor qaratiladi)	10
3	Dizayn, musiqa, foto va videolavhalarining mavzuga mos tanlanishi	10
4	Yozma savodxonlik (orfografiya, punktuatsiya, stilistika)	10
5	Rasmiylashtirilishi (insho yozish qoidalariga mos kelishi ma'nosida)	10
		50

Talabga muvofiq, guruh sardorlari tayyor bo'lgan inshoni yozma, taqdimot va video tarzida taqdim etsalarda, asosiy baho videoinsho asosida qo'yiladi. Tanlov asosida yaratilgan insholarning kamchiliklari bartaraf etilgach, "Surxon malaka" telegram guruhiga joylashtirilib, ijodiy ish sifatida insho yaratuvchilar metodik manbasidan joy olishi va respublikadagi telegram guruhlariga joylashtirilishi maqsad qilingan.

	Guruh sardorlari va guruhlar, bosqichlar	1	2	3	4	5
1	Muhabbat Xo'jayeva (Sariosiyo)					
2	Nilufar Tursunova (Termiz shahri)					
3	Nargiza Salimova					
4	Sayyora Jumaniyozova (Termiz shahri)					
5	Gulshod O'roqova					

Tanlov g'oliblariga qimmatbaho sovg'alar va da qilmagan bo'lsam-da, ijodiy ishni bajarish mobaynida o'qituvchilarning o'z ishlaridan o'zlarining olgan taassurotlari o'zgacha bo'ldi. Ijodiy ish, yaratuvchanlik, ishonavering, barchaga birdek yoqadi. Ayniqsa, mahsulotingiz kimgadir manzur bo'lib, e'tirof etilishining o'ziyoq qimmatbaho sovg'alar o'rmini to'ldirib ketadi. Ijodiy ishlarni yaratish jarayonida orada mafosa bo'lsa-da, birlashib natijaga erisholgan o'qituvchilarning fikrlarini eshitarkanman, olgan tajribalarini kelgusi amaliyotlarida ham qo'llashini bilishimning o'ziyoq, rosti menga zavq bag'ishlaydi. So'zim yakunida yana o'sha fikrimni takror aytaman. Hurmatli ustozlar, sizning salohiyatingiz, bilimingiz, zakovatingiz o'quvchilaringiz hayoti, so'zi va o'zida aksini topmog'i dardor. Unutmang, ilm siz va bizga omonatdir. "OMONAT" so'zi va tushunchasi mohiyatini izohlashim shartmas meningcha. Zero, xalqimiz omonatga juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish bilan bir qatorda, avlodlariga ham asrlar mobaynida "omonatga xiyonat qilib bo'lmasligi"ni singdirib kelgan.

Surayyo QODIROVA,
Surxondaryo VIXTQUMOHM
"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasini
katta o'qituvchisi

PIRLS testi

"Mittivoy va Karlson"

I qism

— Xo'sh, endi bir ko'ngilni yozaylik, — dedi Karlson bir zundan keyin. — Kel, avval tomma-tom chopamiz.

Mittivoy jon deb rozi bo'libdi. U Karlsonning qo'lidan ushlab oldi, ikkovi tomga chiqishdi.

— Bezorilarni ko'rishni istaysanmi? — deb so'radi Karlson Mittivoydan, sal nafaslarini rostlab olishgach. — Boloxonalarimning birida ikkita zo'r, ashaddiy bezori turadi.

Karlson ko'rsatgan boloxona derazalaridan g'ovur-g'uvur, kulgi, qiyqiriq eshitilardi.

— Ho, ular kayf-safo qilishyapti! — dedi Karlson. — Yur, nimani ermak qilishayotganini borib ko'ramiz.

Karlson bilan Mittivoy yana bo'g'ot yoqalab emaklab ketishdi. Ular boloxonaga yetishganda, Karlson boshini ko'tarib, derazaga qaradi. Derazaga parda osib qo'yilgandi. Biroq Karlson pardadan bir teshik topdi, o'sha teshikdan hamma narsa ko'rinardi.

— Bezorilarnikida mehmon bor ekan, — deb shivirladi Karlson. Mittivoy ham teshikdan qaradi. Xonada ko'rinishi bezoriga o'xshagan ikki odam bilan yuvosh, yoqimtoy yigit o'tirardi.

— Bilasanmi, nima gap bor? — deb shivirladi Karlson. — Menimcha, bezorilarning niyati buzuq, ular biror xunuk ish qilmoqchi. Lekin biz ularga xalaqit beramiz...

Karlson teshikdan yana bir bor qaradi. — Garov o'ynaymanki, ular qizil galstuk taqqan yigit bechorani shilishmoqchi!

Bezorilar bilan galstuk taqqan yigit deraza oldida stolcha atrofida ovqatlanib o'tirishardi.

Bezorilar o'qtin-o'qtin mehmonning yelkasiga qoqib qo'yishardi.

— Omading bor ekan, yigit, Fille bilan meni uchratib qolding, — dedi Rille.

— To'g'ri, Rille bilan meni uchratib qolmaganingda, bilmadim, holing nima kechardi, — dedi Fille ismli yigit.

II qism

Keyin Filling bir ishini ko'rib, Mittivoy hang-mang bo'lib qoldi: Fille Oskarning shimining cho'ntagiga qo'lini solib, hamyonni olib o'z shimining orqa cho'ntagiga solib qo'ydi.

Oskar hech nimani sezmay qoldi. Chunki xuddi shu payt Rille uni quchoqlab olgan edi. Rille quchog'ini yozganda, uning qo'lida Oskarning soati paydo bo'ldi. Rille soatni shimining orqa cho'ntagiga solib qo'ydi. Oskar buni ham sezmedi.

Biroq tomda yashovchi Karlson semiz va do'mboq qo'lini parda tagiga ehtiyotkorlik bilan suqdi-da, Fillingning cho'ntagidan hamyonni olib qo'ydi. Fille ham hech nimani sezmedi. Keyin Karlson yana do'mboq qo'lini parda tagiga suqib, Rillingning cho'ntagidan soatni oldi.

Rille, Fille va Oskar biroz gaplashib o'tirganidan so'ng, Fille cho'ntagiga qo'lini solib ko'rsakki, hamyon yo'q. U Rillega g'azab bilan qaradi-da, shunday dedi:

— Menga qara, Rille, yur tashqariga chiqib kelaylik. Ikkovimiz gaplashib olishimiz kerak.

Xuddi shu payt Rille ham qo'lini cho'ntagiga soldi, qarasaki, cho'ntagida soat yo'q. Endi u ham Fillega jahl bilan tikildi-da:

— Yur! Mening ham senga aytadigan gapim bor! — dedi.

Oskar yolg'iz o'zi zerikib dahlizga chiqdi.

Karlson derazadan lip etib sakrab tushdi-da, hamyonni chinni idishga solib qo'ydi. Soatni esa

lampaga ilib qo'ydi. Fille, Rille va Oskar xonaga kirishlari bilan soatni ko'rishdi. Biroq Karlsonni payqashmadi. Chunki u dasturxon yozilgan stol tagiga kirib olgandi. Mittivoy ham stol tagida edi.

— Qaranglar, soatim lampada osilib turibdi-ya, — dedi Oskar hayron bo'lib. — Tavba, u yoqqa qanday ilinib qoldi?

U lampa oldiga borib, soatni oldi-da, kamzulinig cho'ntagiga solib qo'ydi.

— Iye, hamyonim kosaning ichida, rost, qaranglar-a! — deya yana qichqirib yubordi Oskar kosani ko'rsatib. — Juda qiziq bo'ldi-ku.

Rille bilan Fille Oskarga hayron bo'lib qarab qolishdi.

Karlson bilan Mittivoy qilgan ishlaridan qotib-qotib kulishardi.

PIRLS testi o'zgacha tartibda tayyorlangan bo'ladi, ya'ni javoblarda harflar turli xil alifbo tartibida berilgan. Testni o'quvchilar yechib bo'lgandan so'ng, har bir javobdagi harflarni navbat bilan o'qishlari so'raladi va kimda OFARIN so'zi hosil bo'lgan bo'lsa testni muvaffaqiyatli bajargan hisoblanadi.

PIRLS testlari:

1. Kimning boloxonasida ikki ashaddiy bezori turardi?


M) Rille N) Fille O) Karlson P) Oskar

2. Boloxona pardasi tasvirlangan rasmni toping

E) F)



G)



H)




A)



B)

3. Oskarning galstugini toping.



C)

D)


4. Omading bor ekan, yigit,bilan meni uchratib qolding, — dedi

Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

P) Rille, Fille Q) Rille, Oskar

R) Fille, Rille S) Oskar, Karlson

5. Fille Oskarning shimining cho'ntagidan nimani oldi?



H)


I)

J)

K)

6. Karlsonning qo'li berilgan rasmni toping

L) M) N) O)



7. Rille Oskarning soatini qanday hiyla ishlatib oldi?

Javob: _____


8. Soat va hamyon Fille va Rille cho'ntagidan qanday yo'qolib qoldi?

J: _____

9. Oskarning soati qayerda paydo bo'ldi?

J: _____

10. Hamyonni qaysi chinni idishdan topib oldi? Chinni idish nomini yozing va rasmni chizing.



To'g'ri javoblar:


1	2	3	4	5	6
O	F	A	R	I	N

7. Rille uni quchoqlab olgan edi. Rille quchog'ini yozganda, uning qo'lida Oskarning soati paydo bo'ldi.

8. Tomda yashovchi Karlson semiz va do'mboq qo'lini parda tagiga ehtiyotkorlik bilan suqdi-da, Fillingning cho'ntagidan hamyonni olib qo'ydi. Fille ham hech nimani sezmedi. Keyin Karlson yana do'mboq qo'lini parda tagiga suqib, Rillingning cho'ntagidan soatni oldi.

9. Karlson derazadan lip etib sakrab tushdi-da, hamyonni chinni idishga solib qo'ydi. Soatni esa lampaga ilib qo'ydi.

10. Kosa



Ushbu testlar o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish hamda to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qish didaktik material sifatida tuzildi. O'tgan mavzuni 20–25 daqiqa davomida PIRLS testlari orqali o'quvchiga aniq yetkaza olaman. Ushbu testlar o'quvchilarni diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilishga undaydi.

Professor Shmidt Murodovning hayot yo'li

Buxoroning G'ijduvonidan bo'lgan Shmidt Murodov 1959-yili Buxoro davlat pedagogika instituti fizika-matematika fakultetini "matematika-chizmachilik" mutaxassisligi bo'yicha "imtiyozli" diplom bilan tamomlagan. Dastlab G'ijduvondagi o'rta maktabda, so'ngra BuxDUning "Umumiy matematika" kafedrasida assistent, so'ngra katta o'qituvchi bo'lib ishlagan. Undan so'ng Kiyev qurilish muhandislari institutining "Chizma geometriya va injenerlik grafikasi" kafedrasida aspiranti bo'lgan.



1967-yilda Kiyev shahrida "Некоторые обратные метрические задачи начертательной геометрии" mavzusida texnika fanlari nomzodi dissertatsiyasini yoqlagan. 1968-yili dotsentlik va 1991-yilda professorlik ilmiy unvonlarini olgan.

Professor Shmidt Murodov 1963-yildan beri Ukrainada xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor V.Y.Mixaylenko va boshqa kiyevlik olimlar bilan uzviy aloqada. Uning tashkilotchiligidagi kiyevlik professorlar V.Y.Mixaylenko, S.N.Kovalyev, M.F.Yevtifseyev, A.L.Podgorniy, N.A.Sidletsskayalar ishtirokida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Urganch

shaharlaridagi OTMlarda ilmiy seminarlar tashkil qilingan. Sh.Murodov Rossiya professorlari bilan birgalikda Toshkentda va Samarqandda OTM o'qituvchilari uchun ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilishda faol qatnashgan.

"Amaliy geometriya, muhandislik va kompyuterlik grafikasi" bo'yicha respublikamizdagi 35 nafar fan nomzodidan 28 nafari texnika fanlari nomzodlik dissertatsiyasini Kiyev qurilish muhandislik institutida himoya qilgan. Professor Sh.Murodovning shogirdlari A.Shomurodov va I.Mamurov ham shular jumlasidan. Uning rahbarligida N.Hurboev "Ta'lim va tarbi-

ya nazariyasi va metodikasi" mavzusida dissertatsiya yoqlab, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishgan, M. Jo'rayev, S.Davlatov dotsentlik unvoniga ega bo'lgan.

Ustozning ilmiy va metodik ishlari 180 dan ortiq bo'lib, ular Germaniya, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va Respublikamizning nufuzli ilmiy to'plamlari va jurnallarida chop etilgan. OTM o'qituvchilari va talabalari uchun 1 monografiya, 5 darslik va 9 o'quv-metodik qo'llanmasi chop etilgan va ulardan 3 tasi Respublika darslik va o'quv qo'llanmalari tanlovida 1-3-o'rinlarni olgan.

Professor respublikada "Chizma geometriya" fanidan birinchi bo'lib "Аналитико-графические методы решения обратных метрических задач и их применение в инженерной практике" ("Fan", Toshkent. 9 b.t., 1986.) monografiyasini chop ettirgan olim hisoblanadi.

36 yil davomida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida dotsent va professor bo'lib ishlagan domla 20 yil "Chizma geometriya va injenerlik grafikasi" kafedrasiga rahbarlik qilgan.

2005-yilda Nizomiy nomidagi TDPU magistratura talabalari uchun "Amaliy geometriya", "Yaqqol tasvirlash nazariyasi" va boshqa grafik fanlarni o'qitishni yanada takomillashtirish va magistr talabalarining ilmiy ishlariga rahbarlikni rivojlantirish maqsadida universitet rektorining taklifiga binoan "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi" kafedrasining professori lavozimiga ishga qabul qilingan.

Hozirgi vaqtda professor

Sh.Murodov yoshlarga namunali murabbiy. Shuningdek, magistrlar uchun Respublikada birinchi marta yozilgan "Amaliy geometriya" darsligi hamda "Chizma geometriya kursi"ning yangi to'liq kursi, Qozog'istonda o'zbek tilida o'quvchi talabalar uchun "Chizma geometriya" darsligini Qozog'iston olimlari bilan birgalikda, shu bilan birgalikda yangi fan hisoblangan "Grafik tasvirlash asoslari" darsliklarini yaratish ishlari bilan hamda grafik fanlarini o'qitish muammolarini takomillashtirish masalalari bilan shug'ullanmoqda.

"Amaliy geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasi" fanlarining yetuk olimi, o'z kasbiga sadoqatli, talabchan, kamtarin ustoz Shmidt Murodovning 82 yoshga to'lgani va OTMda 60 yillik pedagogik faoliyati bilan tabriklab, hamkasblari va shogirdlari nomidan uzoq umr, baxt-saodat, sharafli pedagogik faoliyatida kuch-quvvat tilab qolamiz.

S.ZIYODOV

Ikki kasb fidoyilari

Insonlarga nisbatan qachon "kasbi ortidan baraka topgan" iborasi ishlatiladi? Qachonki, egallagan kasbi, ilm-u urfoni yordamida atrofdagilarga, jamiyatga foydasi tegsa. Bugungi murakkab jarayonda o'z jonini-da xatarga qo'yib, o'zgalarga haqiqatiga mas'ul hissi bilan yonib ishlayotgan shunday kasb egalari borki, shubhasiz, bu — shifokorlardir. Bundan tashqari, qiyinchiliklarga qaramay, o'z vazifasini sidqidildan bajargan, xalq farzandlariga bilim berishdan also charchamayotgan o'qituvchilarning mehnati ham tahsinga loyiq.

So'nggi paytlarda bu ikki kasb egalari, ming afsuski, turli ta'na-dashnomlarga, ayrim shaxslarning o'ylamay-netmay qilgan nohaq xatti-harakatlariga ko'p duch keldi. Masalan, o'qituvchilar aksariyat hollarda o'quvchisining tarbiyasi bo'lishi, maktab odob-axloq qoidalarga amal qilishi, darslarni o'z vaqtida bajarishi, ota-onalardan farzandiga ko'proq vaqt ajratishni talab qilgani uchun aybdorga chiqdi. Ayrim ota-onalarning loqayd va bee'tiborligi oqibatida bola maktabdan, o'qituvchisidan soviy boshladi.

O'qituvchilar faoliyati boshidanoq o'quvchilarga bor bilim, malakasini safarbar etishga qasam ichishsa, shifokorlar Gippokrat qasamini ichadi. Qaysi shifokor yoniga najot, shifo so'rab kelgan bemorning sog'ayishini istamaydi, deysiz. Ammo ularni-da befarqlikda ayblab, turli malomat toshlarini otgan, hatto ularga qo'l ko'targan kimsalar ham oramizda topildi. Yurtimizdagi vaziyat sabab ular o'z kasbining yetuk mutaxassislari, haqiqiy fidoyilari ekanliklariga yana bir bor guvoh bo'ldik. Minglab shifokor va hamshiralimiz kasallikning yuqish darajasi juda yuqori bo'lsa ham, o'zlarini chetga olmadi, bemorlar sog'ayishi uchun tun-una kun ishladi, ishlamoqda.

O'qituvchilarimiz ham onlayn darslarni qoniqli olib bordi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: ota-onalar farzandlarining onlayn darslarda ishtirokini qay darajada ta'minlay oldi? Mas'uliyati ota-onalar jamiyatimizda ko'p, ammo ayrim ota-onalar bu borada loqaydlik qildi.

Asosiy vaqtini farzandlari bilan o'tkazib, berilgan topshiriqlarni alo darajada bajargan oilalar ko'pchilik. Karantin hali davom etayotgan bir paytda onlayn darslarning yo'lga qo'yilgani foydali bo'ldi. Yangi o'quv yilini qanday boshlashimizni hozircha taxmin qiladigan bo'lsak, o'quv yili oxiridagi onlayn mashg'ulotlar samara berishi shubhasiz. Bu — ustozlar zimmasiga yanada zalvorli mas'uliyat yuklaydi. Xuddi shifokorlardek ular ham o'zining sharafli burchini bajarishda davom etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu ikki kasb egalaring hayotimizda o'rni beqiyos. O'qituvchi inson savodini chiqarib, ongi va ma'naviyatini boyitishga xizmat qilsa, shifokor uning sog'lig'i yo'lida kurashadi.

Dilnoza DONABOYEVA,
Xovos tumanidagi 7-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

"Biz bu zamon bamosoli tog' oshayotgan odamlarmiz. Tog' yo'li mardlik, jasoratni ham, bag'oyat hushyorlikni ham talab etadi", degan edi sevimli shoirimiz Erkin Vohidov. Bu fikrlar ayni kunlar uchun aytilgandek go'yo. Xuddi shu og'ir pandemiya davrida qiyinchiliklarga bardosh berib, yoshlar uchun bilimni ayamasdan ibrat maktabini o'tayotgan ustoz Gulnora Yangiyeva haqida so'z yuritmoqchiman.

Yuksak kamolot sohibasi

Inson ma'lum yoshga yetganida yoshlikdagi orzu-umidlarini eslash bilan bir qatorda o'z hayot yo'lga nazar tashlab, o'ziga-o'zi baho berib, yutuqlari, qilgan xatolarini sarhisob qilgan ekan. O'z yo'lini topib olguncha hayotda kishi qanchadan-qancha qiyinchiliklarni sabot va matonat bilan yengishi kerak bo'ladi. Hamkasbim Gulnora opaning hayot yo'li bu haqiqatning yorqin isbotidir.

Halollik, poklik, ezgulik kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik faoliyatingiz, har bir o'tgan darsingiz ibrat maktabi, albatta.

Asosiysi, bularning hammasiga o'z mehnatsevarligingiz, bolajonligingiz, sabot va matonatingiz, qat'iyatligingiz tufayli erishdingiz. Balki sizni butun Respublika tanimas, lekin minglab shogirdlaringiz, ularning ota-onalari, 16-maktab jamoasi yaxshi biladi, hurmat qiladi. Ha, sizda tog'dek qalb borki, ulashayotgan mehringiz dunyolarga yetadi. Sizga eng oliy mukofoti odamlarimiz berib qo'yishgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini



nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan tashkil etilgan "Nima deb o'ylaysiz?" rukni ostidagi tanlovda o'quvchingiz faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Bularning barchasi zamirida sizning tinimsiz mehnatingiz, fidokorligingiz turibdi, albatta. Bularning o'zi sizga berilgan yuksak mukofot. Bugun o'quvchilar ardog'idagi ustoz, mehribon umr yo'ldoshi, ajoyib oila bekasi, zukko va komil farzandlarning onasiz.

Sizga havas qilamiz. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarning ongida, dunyoqarashida chuqur iz qoldiruvchi, ular qalblarining nozik torlarini chertuvchi ajoyib darslariningizdan saboq oluvchilar orasida bizning ham farzandlarimiz borligi qalbimizda yana bir bor faxr va iftixor tuyg'usini oshiradi.

Qunduz ISLOMOVA,
Buxoro shahridagi
16-maktab o'qituvchisi

Quchqorova Nargiza Mamajonovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Otepbergenov Jeterbay Sakbergenovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Axborot ta'lim muhiti sharoitida talabalarida kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-avgust kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Saidova Kamola Uskanbayevnaning 09.00.03 — Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha "G'arb va Sharq ekzistensializmida inson erkinligi komparativistikasi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 7-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Shavazi Nargiz Nuraliyevnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Yetilmagan homiladorlikda qog'onoq suyuqligining muddatidan oldin ketishini prognoz qilish va oldini olish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 7-avgust kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Radjabova Yulduz Nazimovnaning 14.00.11 — Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha "Bexchet kasalligining immunologik va morfologik xususiyatlari hamda davolashni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020 yil 7-avgust kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'lining 08.00.11 — Marketing ixtisosligi bo'yicha "Tikuv-trikotaj korxonalarini eksport salohiyatini xalqaro marketing strategiyalari asosida oshirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01. raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 5-avgust kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Abipova Gulmira Salavatdinovnaning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit hamda 08.00.13 — Menejment tutash ixtisosliklari bo'yicha "Aksiyadorlik jamiyatlarini xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-avgust kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Saatova Lolaxon Ergashevnaning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha "Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali boshqarish ("O'zbektelekom" AK misolida)" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 13-avgust kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Sherov Anvar Umarovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda budget siyosati yo'nalishlarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 13-avgust kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Yusupov Boburbekning 08.00.15 — Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 10-avgust kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Mamadaliyeva Feruza Asrorovnaning 09.00.02 — Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika) ixtisosligi bo'yicha "Islomiy qadriyatlarda shaxs mas'uliyati muammosi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 6-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Tangirov Nizom Abduraxmonovichning 09.00.01 — Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha "Noosfera konsepsiyasining falsafiy-metodologik tahlili" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 6-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Tarixni tarixiy asarlardan o'rganamiz

Yosh avlod tarbiyasida tarixiy asarlarning o'ziga xos o'rni bor. Ota-bobolaridan o'rnatilgan olishi, o'zlarini buyuk tarix merosxo'rlari sifatida his etib ulg'ayishida bunday asarlarning ahamiyati katta.

Masalan, Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Nizomiddin Shomiyning "Zafar-noma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si — o'lmas merosdir. Boz ustiga, tarixni o'rganishda, o'rgatishda noyob qo'llanmadir.

Men ham darslarimda shu betakror qo'llanmalardan foydalanaman. Dastlab o'quvchilarga bu asarlarni sinchkovlik bilan o'qishni topshiraman. So'ng fikri, taassuroti bilan qiziqaman. Asarlarda uchraydigan dono fikrlar, pandlarni alohida yozib borishlarini tayinlayman. Geografik nomlarga, atamalarga alohida e'tibor qaratishlarini nazorat qilaman. Muayyan mavzularni o'rgatishimda bu usul ijobiy samara berdi. O'g'il-qizlar ham mutolaa qilishdi, ham bilimlarini boyitishdi. Siz ham sinab ko'rsangiz, natijasini sezasis, shubhasiz.

Malohat UMAROVA,
Baliqchi tumandagi
38-DIMIning tarix fani o'qituvchisi

Toshkent shahri Yunusobod tumani Texnik inventarizatsiyalash byurosi (BTE) tomonidan 2010-yil 15-martda Babaraimov Sadirjon Abduraxmanovich nomiga (1007040201-5337-0001 raqamli kadastr yig'ma jildi) qayd etilgan Bog'i Eram ko'chasi, 3-tupik, 15-uyga tegishli KO'CHMAS MULK KADASTR HUUJATI yo'qolganligi sababli
BEKOR QILINADI.

Toshkent temiryo'l muhandislar instituti qoshidagi Mirobod akademik litseyi tomonidan 2017-yil 14-iyulda Ibragimov Azizxo'ja Alisherovichga berilgan L№ 019675 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolganligi sababli
BEKOR QILINADI.

O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Samarqand viloyati Urgut tuman kengashi raisi, xalq deputatlar tuman kengashi deputati
Madina BARATOVning
vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildirdi.

O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar kengashi raisi
Alisher YO'LDOSHEVning
vafoti munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

"Boshlang'ich ta'lim" jurnali Tahrir hay'ati va jamoasi tahririyat bo'lim muharriri Shahnoza Vosiqovaga onasi
MUHABBAT ayaning
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor qiladi.

Til tishlab turolmayman

So'nggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda ona tili darslarining qisqarishiga turli kishilarning turfa munosabatlarini o'qiyapmiz. Har xil soha vakillarining maqsadi va fikrlari turfa xil, ammo quvonarlisi, ularning munosabatida yakdillik bor.

Ona tili darslarini qisqartirish fanni soddalashtirish uchun maqbul yechim emasligini ta'kidlayotgan ziyolilar, voqe'likni tilimizga siyosiy xuruj sifatida baholayotgan jamoatchilik vakillari, farzandi kamolotini o'ylab xavotirlanayotgan ota-onalar va nihoyat darslari kama'yib ketayotganidan zorlanayotgan o'qituvchilar...

Ba'zan o'quvchilar o'z nutqida ruscha so'zlar aralashtirganini ko'rib qolsam, beqasam to'n bilan shlyapa kiygan odam haqida fikrini so'rayman-da, o'zining xuddi shu ahvolda ekanini aytib uyaltiraman. Tilimizdagi bu qusur mustamlaka asorati, qullikdan nishona ekanini tushuntiraman. Xo'sh, o'qituvchining ozi shunday gapirsa-chi? Yoshligimizda onamning tovuqlarni katakka muttasil 5-6 kun qamab qo'ysang, keyin ochiq qoldirsang ham kirib kelaveradi, deganlari esimda. Sho'ro hukumatining maqsadli siyosati tufayli tilimiz chalajon qiyofaga kirib qoldi. Rus tilini davlat tili deb e'lon qilish haqidagi ayrim ziyolilarning iddaolarini esa haligi

tovuqlarning ahvoriga o'xshataman. Atrofga nazar tashlasangiz, sof o'zbekcha "bo'yinbog'" o'rnida "galstuk", "simyog'och" o'rnida "stolba", "chizg'ich" o'rnida "lineyka" kabi so'zlarni faol qo'llaydigan, boshqa tildagi so'zlarni aralashtirganini payqamaydigan, mabodo aytib qolsangiz, sizga ajablanib qaraydigan

gi rus maktablarida tahsil olgan bo'lsalar ham ajablanmayman. Bugun jim turishga hech birmizning haqqimiz yo'q. Millat kishisi sifatida ona tilimizga e'tibor masalasiga jiddiy ahamiyat qaratayotgan, munosabat bildirayotgan yurtdoshlarimizga tahsin aytgan holda ona tili fani o'qitilishining qisqartirilishiga



hamiyurtlarimiz, hatto ustozlarimiz ham talaygina. Bugungi rahbarlarga ta'lim bergan ham o'z tilida chala yarim gapiradigan yoxud shu kabilarga jim qarab turib imkon yaratadigan siz-u biz kabi ustozlar-ku axir! Ko'pchili-


oqibat sifatida faqatgina darslarining kamayishini ko'rayotgan ustozlarimizni millat manfaatida qayg'urishga da'vat qilmoqchiman. Farzandingiz uydun pul o'marsa, pulingizga achinasizmi yoki ma'naviyati zil ketgan bolangizgami? Voqelikning katta oqibatlar turganda kichigi atrofta o'ralashishga ne hojat?! Zero, barcha zamonlarda moddiyatdan ma'naviyatni ustun qo'ygan xalq muzaffardir.

Zebuniso JUMAYEVA, Qumqo'rg'on tumanidagi 11-AFChO'IMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

2019-yil 21-oktabrda Prezidentimiz o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqida: "Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir", deb ta'kidlagan edi.

Millat oynasi

Ana shu bog'liqlikni tilimizdagi o'z so'zlarimiz ko'rsatib turganligini 80 mingdan ortiq o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan so'z va so'z birikmalari, fan, texnika, san'at va madaniyat sohalari o'z terminlar, shevada qo'llanadigan so'zlar, tarixiy atamalarini o'z ichiga olgan yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati" misolida ko'rishimiz mumkin. Lug'atdan nafaqat o'zbek tili



leksik sathiga kirib kelayotgan o'zlashmalar, balki mental xususiyatlarimizni o'zida jamlagan tarixiy so'zlar ham o'rin olganligi kitobxonlarni o'zbek madaniyati tomon yaqinlashtiradi. 3 ming nusxada chop etilgan ushbu lug'atning yana bir afzal jihati shundaki, izohli lug'atning mobil ilovasi ham ishlab chiqilgan, yangi turdagi lug'atlar bilan boyitish imkonini bo'lishi nazarda tutilgan. Muxtasar qilganda, o'zbek tili necha ming yillik boy tarixga ega ekanligini ushbu lug'at anglatib turibdi.

Shu sohaning kichik bir vakili sifatida zamonlar osha necha-necha talotoplardan omon chiqib, sayqallanib kelgan ona tilimiz bag'ridagi durdona so'zlarni o'zida jamlagan yangi izohli lug'atimizni ko'rib, quvonchga to'ldim. Yangi izohli lug'at barhamizga muborak bo'lsin!

Umida YUSUPOVA, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 3-bosqich talabasi

Yoshlar tadbirlarda "bezak" bo'lmasin!

Yoshlarning vaqtini behuda narsalarga o'g'irlamaslik lozim. O'ylab ko'ring, bir tiyinlik foydasi tegmaydigan yig'ilishlar, xo'jako'rsinga o'tkazilayotgan tadbirlar, "goliblar"i oldindan belgilab qo'yilgan musobaqa va tanlovlar yoshlarning olg'a harakat qilishida to'sqinlik qiladi va ularning fanga qiziqishi susayishiga sabab bo'ladi.



Oldi-qochdi gaplarni, tadbir-bozlikni yig'ishtirib, muammoga sal jiddiyroq yondashish lozim. Shu o'rinda o'zim guvohi hamda bevosita ishtirokchisi bo'lgan voqeani aytay.

Olimpiadaning tuman bosqichi bo'lib o'tdi va bunda faxrli o'rin olgan o'quvchilarni "ko'rgazma" uchun litsey binosiga taklif qilindi. Anglashimcha, qaysidir soha vakili tumandagi o'zgarishlarni, loyihalarni ko'rib chiqmoqchi ekan. Albat, yoshlarning bunday tadbirlarda qatnashishi yaxshi, ammo

bir narsaga hayron qoldim. Qiziquvchanligim sabab, tadbirmi tashkillashtiruvchiga "Men ham o'zimni qiziqitirgan savollar bilan murojaat qilmoqchidim", dedim. Javobini eshitib lol qoldim: "Tadbirdagi har bir narsa oldindan rejalashtirilgan, sizning qanday taklif va savol aytishingiz biz uchun qorong'i. Shuning uchun 1-2 kun oldin biz bilan maslahatlashishingiz kerak edi. Endi kech". Tavba, tadbir bo'lishini bugun eshitdim-ku, qanaqasiga 1-2 kun oldin uchrashib, mulohazalari bildiraman?! Jahl ustida "Tadbirni boshdan oyoq kassetaga yo diskka yozdirib, bu yerda fonogramma qo'yavermasizlar-da", deyishimga bir bahya qoldi.

Mana shunday "reja"li tadbirlar yoshlarga nima beradi?

Oldindan tuzib, tayyorlanib qo'yilgan yig'ilishda iqtidorli yoshlardan "bezak" sifatida foydalanish adolatdirmi? Undan ko'ra 2-3 bet kitob o'qigan afzal emasmi? Aytaversak, bu kabi muammolar bisyor.

Yoshlarga nisbatan qilinayotgan "ko'z ko'rib, quloq eshitmagan" munosabatlar haqida lof urish qo'limdan kelmasligi aniq. Ammo yurt ravnaqini belgilovchi yoshlarning ertasi haqida mulohazamni bildirdim, xolos. Bu kichkina mavzu emas, uning tagida ko'plab kamchiliklar, xato va illatlar yotibdi. Bularga har doimgidek beparvo bo'lsak, o'zimiz qurayotgan kelajak poydevoriga bir g'isht qo'yib, ikkitasini buzib olgan bo'lmaymizmi?

Layto OLIMOVA

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:
O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4264. Tiraj 8658. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxonaga — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov. **Navbatchi muharrir:** Mahmud Rajabov. **Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa jodiy uyida chop etildi. Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy. O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40 1 2 3 4 5 6